

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI

SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI

*«Dehqonchilik va melioratsiya asoslari»
kafedrası*

*5620200 – Agronomiya (dehqonchilik
mahsulotlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi
bakalavriat bitiruvchisi*

ASHUROV ELYOR ning

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: «O'tloq tuproqlar sharoitida g'o'zaning “Omad” navini oziqlantirish rejimini
hosildorlikka ta'siri»**

Ilmiy rahbar, dotsent

Sh.Berdiqulov

Bitiruv malakaviy ishi ko'rib chiqildi va DAK himoyasiga ruxsat etildi

Kafedra mudiri, professor

_____ **K.Mo'minov**

«_____» _____ 2013 y

Fakultet dekani, dotsent

_____ **M.Hayitov**

«_____» _____ 2013 y

SAMARQAND-2013

	Mundarija	
	Kirish	3
I.	Adabiyotlar tahlili	5
II.	Asosiy qism	16
2.1	G`o`zaning biologik xususiyatlari va hayot faktorlariga bo`lgan talabi	16
2.2	G`o`za “Omad” navining tavsiya etilgan oziqlantirish va sug`orish rejimlari	19
2.3	Mineral o`g`itlardan foydalanish samaradorligini oshirish tadbirlari	24
2.4	“Omad” g`o`za navi agroteknikasi	29
2.5	Oziqlantirish muddat va me`yorlarining g`o`zani o`sishi , rivojlanishi va hosildorligiga ta`siri	36
2.6	Har xil suv va oziqa rejimlarining g`o`za hosildorligiga ta`siri	41
2.7	Paxta tolasining sifatiga suv va oziqa rejimlarining ta`siri	43
2.8	Paxtachilikda maqbul oziqlantirish muddat va me`yorlarining iqtisodiy samaradorlikka ta`siri	45
III.	Respublikamiz sharoitida iqtisodiy inqirozni oldini olish yo`llari va choralari	48
IV.	Qishloq xo`jaligini modernizatsiya qilishning mohiyati va asosiy yo`nalishlari	52
V.	Bosh maqsadimiz – keng ko`lamli islohotlar va modernizatsiya yo`lini qat`iyat bilan davom ettirish	54
VI.	Qishloq xo`jaligi ishlab chiqarishda hayot faoliyati xavfsizligi	63
VII.	Yer shari iqlimining hozirgi o`zgarishlari va uning tabiiy resurslarga ta`siri	65
	Xulosalar va takliflar	68
	Foydalanilgan adabiyotlar ro`yhati	69
	Ilovalar	72

Kirish

Respublikamizda dehqonchilik xalq xo'jaligining yetakchi tarmog'i hisoblanadi. Shuning uchun ham, mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab, qishloq xo'jaligini ayniqsa, dehqonchilikni yanada rivojlantirish uchun bir qator qonunlar: "Yer kodeksi", "fermer xo'jaligi to'g'risida", "Suv va suvdan foydalanish to'g'risida", "Seleksiya yutuqlari to'g'risida", "Urug'chilik to'g'risida"gi qonunlar qabul qilindi va hayotga tadbiiq qilindi.

Belgilangan chora – tadbirlar tizimida o'simliklarning yashash sharoitlarini, tuproq unumdorligini oshirish, uning suv, havo, issiqlik va oziqa rejimlarini yaxshilash, tuproqning fizik – kimyoviy va undagi mikrobiologik jarayonlarining faolligini hamda meliorativ holatini yaxshilash, begona o'tlar va ularga qarshi kurashish tadbirlarini ishlab chiqishga, tuproqni ishlash tizimiga, ekinlarni ekish, ilmiy asoslangan almashlab ekishlarni joriy etish masalalariga alohida e'tibor berildi.

Agrotexnika tadbirlari tizimida o'simliklarni to'g'ri oziqlantirish muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Turli tuproq – iqlim sharoitlarini hisobga olgan holda o'g'itlar qo'llash me'yor va muddatlarini belgilash lozim va buni o'rganish dolzarb xisoblanadi.

O'simliklarni oziqa moddalari bilan ta'minlash vositasi bo'lgan o'g'itlar ekinlar hosildorligini oshirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Hozirgi vaqtda, paxtachilikda, o'g'itlarni to'g'ri qo'llash hisobiga hosildorlikni ikki barobar oshirish mumkinligi tajribalardan ma'lum. O'g'itlar samaradorligini oshirish uchun g'o'za navlarining biologik xususiyatlarini hamda tuproq sharoitini to'liq o'rganish zarurdir. Ma'lumki, keyingi yillarda ko'plab yangi, istiqbolli g'o'za navlari yaratildi . Ularning asosiy hayot faktorlariga bo'lgan talabi ham turlichadir. Shuni e'tiborga olgan holda o'g'itlarni maqbul me'yor va muddatlarni o'rganish asosiy maqsad hisoblanadi.

G'o'zani to'g'ri oziqlantirish uchun, avvalo tuproq, iqlim sharoitlari haqida aniq ma'lumotlarga ega bo'lish lozim. Shundagina ko'zlangan maqsadga erishish mumkin bo'ladi.

G'o'zani to'g'ri oziqlantirish yuqori va sifatli hosil yetishtirishning asosi

bo'lishi bilan birga o'g'itlar samaradorligini oshirishni ta'minlovchi asos hamdir. Ma'lumki, g'o'zaning o'sishi, rivojlanishiga tuproq-iqlim sharoitlaridan tashqari, gidrogeologik, gidrolik hamda meteorologik sharoitlar ham kuchli ta'sir ko'rsatadi. Demak, ushbu sharoitlarni ham e'tibordan chetda qoldirmaslik lozim. Bundan tashqari, g'o'zaning rivojlanish fazalarida bitta hayot faktoriga bo'lgan talabi ham bir xilda bo'lmaydi, balki u o'zgarib turadi. Shuningdek, g'o'za hayotida kritik davrlar ham kuzatiladi, ya'ni rivojlanishining biron-bir davrida bitta yoki ikkita hayot faktorlariga bo'lgan talabi keskin ortib ketadi. Albatta, bunday holatlarni ham nazardan chetda qoldirmaslik juda muhimdir.

Xullas, g'o'zani oziqlantirish rejimini puxta va chuqur o'rganish ishning asosiy vazifalaridan biri bo'lib hisoblanadi.

Paxta yetishtirish bilan o'g'itlardan to'g'ri foydalanish o'rtasida ma'lum aloqadorlik kuzatiladi. Hosildorlik muqarrar ravishda o'g'itlar bilan oziqlantirish me'yorini oshirishni taqozo etadi, o'g'itlar berish normasini ko'paytirish esa hosildorlikning o'sishiga olib keladi. Hosildorlikni oshirish dehqonchilik mahsulotlarni, shu jumladan, paxta yetishtirishni yanada ko'paytirishning asosiy yo'li ekanligi, shuning uchun ham dehqonchilik madaniyatini oshirish sohasida bir qancha tadbirlarni amalga oshirish, mineral va organik o'g'itlardan samarali foydalanish zarurligi Respublikamiz hukumatining diqqat e'tiboridadir.

O'tloq tuproqlar sharoitida g'o'zani oziqlantirish rejimi hozirga qadar to'liq o'rganilmagan. O'tloq tuproqlarning oziqa elimentlari bilan kam ta'minlangan maydonlarida g'o'zani oziqlantirish rejimini maqbullashtirish muhim ahamiyatga ega.

O'tloq tuproqlarning oziqa elimentlari bilan kam ta'minlangan maydonlarida g'o'zani oziqlantirish rejimini batafsil o'rganish ishning asosiy maqsadidir.

I. Adabiyotlar tahlili

G'ozga yaxshi rivojlanishi uchun turli xil elementlarni talab qiladi, buni aniqlash uchun g'ozaning akimyoviy tarkibini bilish kerak. Unda karbon, oksigen, gidrogendan tashqari azot, fosfor, kaliy, kalsiy, kremniy, bor, marganes, alyumeniy, magniy, oltingugurt, temir, mis, natriy, xlor, rux elementlari mavjud bo'lib, bu elementlardan hozirgacha o'g'it tariqasida faqat azot, fosfor va kaliy beriladi (Muhammadjonov, Zokirov, 1995).

Qolgan elementlar tuproqda talab etiladigan darajada mavjud bo'lganligi yoki juda oz miqdorda talab etilganligi sababli ular berilmaydi. Lekin ana shu elementlardan birontasi yetishmasa, bu g'ozaning hayotida salbiy ta'sir etadi. Chunki o'simlikdagi hayotiy jarayonlarda har qaysi elementning o'z o'rnini bor. Shunday paytda bunday elementlar kam miqdorda berilgani uchun ular mikroelementlar deb nomlangan. Bular marganes, mis, rux, molibden va boshqalardir (Protasov, Qodirxo'jayev, 1981).

O'simlik hujayra - to'qimalaridan boshlab barcha organlarning, jumladan, hosilning shakllanishi, modda almashinuv jarayonlari turli birikmalar va zapas moddalarning vujudga kelishida oziq elementlar juda katta rol o'ynaydi.

Tekshirishlarga qaraganda, bir tonna chigitli paxta yetishtirish uchun 50kg azot, 20 kg fosfor, 50 kg kaliy elementlari talab qilinadi. G'ozga bu elementlarni tuproq orqali oladi.

Azot- tirik xujayra asosini tashkil etgan protoplazmaning eng muhim qismi bo'lgan oqsil tarkibiga kiradi. Azot- nuklein va aminokislotalar, xlorofil, lipid va fermentlarning ajralmas tarkibiy qismini tashkil qiladi.

Azot g'ozaning butun hayoti davomida tuproqda bo'lishi kerak. Azot bilan ta'minlangan g'ozga tupi yaxshi o'sib, barglari to'q yashil bo'ladi. Azot yetishmasa, g'ozga sust o'sadi. Barglari sarg'ayib, mayda bo'ladi va kam ko'sak tugadi (Shayxov, Normuhammedov va boshqalar, 1990).

Tuproqning oziqa rejimi, jumladan sug'oriladigan tuproqlardagi nitrat shaklidagi o'g'itlar dinamikasi yetarli darajada o'rganilgan. Turli xil tuproq- iqlim

sharoitlarida olib borilgan kuzatishlardan aniqlanishicha, nitrat shaklidagi azotning hosil bo'lishi va ularning dinamikasi tuproq namligiga, haroratiga, aerasiya darajasiga, o'tmishdosh ekinga va beriladigan o'g'itlar miqdoriga bog'liq bo'ladi.

To'q tusli tipik va och tusli tuproqlarning hamda o'tloq tuproqlarning nitrifikasiya qobiliyatini o'rganish bilan L.P.Rozov (1925), S.A.Kudrin (1930, 1954) Ye.A.Jorixov (1932, 1974), L.I.Dashevskiy (1932), B.P.Machigin (1938), N.B.Balyabo (1940, 1954), M.A.Belousov (1951), G.I.Yarovenko (1957, 1964), G.P.Pershin (1959), P.V. Protasov (1961) va boshqa olimlar shug'ullanganlar. Ular o'z ishlari natijalariga asoslanib, g'o'za bilan band qilingan sug'oriladigan bo'z tuproqlardagi mineral shaklli azot zahirasi ko'klamdan yozning o'rtalariga qadar oshib boradi, degan xulosaga keldilar. Keyinchalik, nitrifikatorlar hayot faoliyatining susayishi va hazmlanadigan shakldagi azot zaxirasi biologik yo'l bilan olib ketilishining oshishi tufayli, uning tuproqdagi miqdori kamayadi.

Tuproqning nitrifikasion qobiliyati, juda ko'p faktorlarga bog'liq. L.A.Lazarev (1949) va boshqa tadqiqotchilarning kuzatishlariga qaraganda, nitrifikasiya jarayoni uchun tuproqning optimal namligi, uning dala nam sig'imiga nisbatan 60 % atrofida bo'lishi kerak.

G.I.Yarovenko (1962) va A.A.Umarov (1968) ma'lumotlariga qaraganda turli formadagi azotlarning o'g'itlarning nitrifikasiya jarayoni tuproqning dala nam sig'imiga nisbatan 60 foiz bo'lganda juda tez boradi. Tuproq namligining ana shu darajadan kamayishi va ortishi bo'z va o'tloq tuproqlarining nitrifikasion qobiliyatini keskin ravishda pasaytirib yuboradi.

Nitratli birikmalar suvda yaxshi eruvchanligi tufayli harakatchan bo'ladi. Shunga ko'ra nitrat shaklidagi azot suv bilan tuproqqa bir ikki metr chuqurligicha yuvilib tushib va kapillyarlar orqali yuqoriga chiqadigan suv bilan yer yuzasiga ko'tarilish qobiliyatiga ega bo'lib, bu hol undan foydalanishga ta'sir ko'rsatadi.

Fosfor protoplazma va hujayra yadrosi hamda kamroq miqdorda oqsilda asosan nuklein kislota tarkibida bo'lib, ular sodda tuzilishli oqsil bilan qo'shilib murakkab nukleoproteidlar hosil qiladi. Fosfor fosfotid tarkibida bo'lib o'simlikning barcha organlarida ozroq miqdorda ishtirok etib, protoplazmaning tarkibiy qismi

tashkil etadi. Fosfor boshqa organik birikmalar shaklida ham bo'ladi. Bu energiya almashinishida nafas olish jarayonida va barcha murakkab birikmalarining paydo bo'lishidagi fotosintez jarayoni va modda almashinuvida muhim rol o'ynaydi. Fosfor xujayralarining o'sishi, bo'linishi, meristema to'qimalarining paydo bo'lishidan katta ahamiyatga ega. O'simlik fosforini asosan fosfor kislotasi anioni shaklida o'zlashtiradi. Azotli moddalarning karbon suvlari va moylariga aylanishi fosfor ishtirokida bo'ladi.

G'o'za rivojlanishining dastlabki davridan fosforli oziqlar bilan yaxshi ta'minlansa, ildiz tizimi tez va baquvvat bo'lib o'sadi, hosil organlari barvaqt paydo bo'lib, ko'saklar tez va erta yetiladi, aksincha, tuproqda fosfor yetarli bo'lmasa g'o'za sust o'sadi, rivojlanish fazalari kechikadi, ko'sak massasi va chigit vazni kamayyadi (Protasov, Tursunxo'jayev, 1981).

Kaliy - oqsil tarkibiga kirmasa ham o'simlik hayotida muhim rol o'ynaydi. O'simlikdagi kaliyning ko'p qismi mineral shaklida, kamroq qismi xo'jayraning struktura elementlariga so'rilgan holda bo'ladi.

Kaliy plazma kolloidlarining va xujayra devorlarining namlik darajasi oshiradi, bu esa o'simlikda modda almashinuv jarayonining normal kechikishida muhim rol o'ynaydi.

F.V.Turchin, Ye.A.Jorinov (1940) ma'lumotlariga ko'ra, o'simlik tomonidan azotning o'zlashtirilishida kaliy muhim rol o'ynar ekan.

Kaliy, o'simlik azot bilan ortiqcha miqdor bir tomonlama oziqlantirilganda, ta'sir kuchini tenglashtiradi va barglarning kattalik faolligini oshiradi. U uglevodlar hosil bo'lishida muhim rol o'ynaydi va ularning harakatlanishi uchun qulay sharoit yaratadi. O'simlik xo'jayralarida gidrofilik kolloidlar miqdorining oshishi o'simlikning sovuq va qurg'oqchilikka chidamligini oshiradi, buning natijasida protoplazma tomonida suv ko'proq ushlab qolinadi.

Kaliy o'g'itlar o'simlikni yotib qolishga nisbatan ancha chidamli qiladi. Ular o'simlikni turli xil kasalliklarga chidamligini oshiradi.

Kaliy yetishmasa, o'simlik sust o'sadi, barglarida qo'ng'ir dog'lar paydo bo'ladi, tola va chigitning sifati pasayyadi.

I.Malsev (1950) tomonidan olib borilgan tajribalarda, yerni surunkasiga olti yil mobaynida kaliyli o'g'itlar bilan oziqlantirilganda gektariga 4,3 sentnerdan qo'shimcha paxta hosili olish imkonini berar ekan.

Aniqlanishicha har yil kaliyli o'g'itlar gektariga yuz kilogramm norma qo'llanilganda tuproqda almashinadigan holatidagi kaliy miqdori oshgani holda, bu o'g'itlar yuqori normadagi azot va fosforli o'g'itlar bilan birgalikda ishlatilganda tuproqda almashinadigan shakldagi kaliyning to'planishi ko'zatilmagan (Protasov, Kadirxo'jayev, 1981).

Qayerda kaliyli o'g'it muntazam ravishda berib borilmagan bo'lsa, usha yerda azot, fosfor va kaliy o'rtasidagi normal nisbat buziladi. Kaliy elementi kamayib ketgan tuproq g'o'zaning bu xildagi element bilan yaxshi oziqlanishini ta'min eta olmaydi. Shunga ko'ra kaliyli o'g'itlar me'yorini belgilashda tuproqdagi almashinadigan kaliy miqdorini bilish, shu asosda g'o'zaga beriladigan kaliyli o'g'itlar normasini aniqlash kerak bo'ladi. Kaliyli o'g'itlar paxta tolasining texnologik xususiyatlarini yaxshilaydi va chigitning yog'dorligini oshiradi.

I.Madrimov (1974) ning ko'zatlari qaranganda, g'o'za kaliy berilmasdan azot va fosforli o'g'itlarning yuqori dozasida o'stirilganda paxta tolasining texnologik xususiyatlari va ko'rsatkichlari keskin ravishda pasayib ketgan.

Shunday qilib, g'o'za hayotida azotli fosforli hamda kaliyli o'g'itlar eng muhim ahamiyatga egadir. Ularning birining o'rnini ikkinchisi bilan to'ldirib bo'lmaydi. Shuning uchun, g'o'zaga beriladigan o'g'itlar yillik me'yorini to'g'ri taqsimlash muhim amaliy ahamiyatga ega. Chunki, rivojlanish fazalari bo'yicha o'simlik o'g'it turini o'zlashtirishiga qarab, turli miqdorda talab qiladi. G'o'za yosh paytida, ya'ni shonoga kirgan davrigacha fosforli va azotli o'g'itlarga talabchan bo'ladi.

Tuproqning fosfor va kaliy o'g'itlari bilan ta'minlanganlik darajasiga qarab, o'g'itlarni turli normalarida va muddatlarida berish taqozo etiladi. Agarda 1kg tuproqda harakatchan fosfor miqdori 15 mg gacha bo'lsa, fosfor o'g'iti uch muddatda : yerni shudgorlash oldidan chigit ekish bilan birga va g'o'za gulga kirganda; tuproq tarkibida 16-30 va 31-45 mg bo'lganda esa yerni shudgorlash oldidan va chigit ekish

bilan bir vaqtda beriladi. Tuproq tarkibidagi harakatchan fosfor 46mg dan ortiq bo'lsa, uni faqat shudgorlash oldidan berish lozim (O'zPITI, 1996).

Shuningdek, kaliyli o'g'itlarning yarmi kuzgi shudgor oldidan va yarmi g'o'za shonaga kira boshlaganda beriladi. Ammo, kaliyli o'g'itning yillik normasi gektariga 150 kg va undan ortiq bo'lganda uchga bo'lib berish yaxshi natija beradi. Bunda belgilangan normaning yarmi kuzgi shudgor oldidan va 25 foizi shonaga kira boshlaganda, qolgan qismi gullash fazasida berilishi yaxshi natija beradi (Protasov, Qodirxo'jayev, 1981).

Respublikamiz sharoitida g'o'zaga beriladigan mineral o'g'itlarning dozalari va ularning o'zaro nisbatlarini o'rganish masalasi Ya.I.Chumanov (1953) , K.M.Semergety (1953), I.I.Madramov (1953, 1965), G.I.Yarovenko (1964) va boshqa olimlarning ishlarida bayon etilgan. Ular tomonidan aniqlanishicha bo'z tuproqlarda g'o'zaga beriladigan mineral o'g'itlarning optimal normalari, avvaldan paxta ekilib kelingan yerlarda azot bo'yicha gektarga 120-180 kg, fosfor bo'yicha 60-90 kg bo'lib, azotning fosforga bo'lgan nisbati 1:0,5; o'tloq tuproqlarda 1:0,7-1:0,8 hisoblanadi.

A.N.Usmonovning (1974) qayd qilishicha, g'o'zaning optimal darajada o'sishi va rivojlanishi oziq elementlarining yuqori konsentratsiyasida yaxshi kechib, bunday sharoitda azot fosforga nisbatan 1:0,85 nisbatda qo'llanganda kelib chiqadi.

F.Ismailov, A.Zaripov, G.Yarovenkolar (1971) Samarqand viloyatining o'tloq tuproqlari sharoitidan uch yillik bedapoya o'rniga ekilgan g'o'za ustida ko'zatish ishlari olib borganlar. Yerga azot va fosfor 1:1 nisbatda berilganda eng yuqori paxta hosili olinib, gektar boshiga 43,8 sentnerni tashkil qildi. Bunda ikki yil davomida g'o'zaga berilgan azot va fosfor normal o'rtacha gektarga 250 kg dan qilib olindi.

Samarqand viloyatining avvaldan sug'orilib kelingan o'tloq- bo'z tuproqlarida A.Safarov (1974) tomonidan olib borilgan kuzatish ishlari natijalariga qaraganda, azotli o'g'itlar normasi oshirilgan sari paxta hosili ham ko'tarilib borgan. Biroq bunda hosildorlik fosforli o'g'it dozasiga bog'liq holda ortadi.

Shunday qilib, agronomiya nuqtai nazaridan o'g'itlarning eng samarali va ularning o'zaro nisbati qo'yidagicha bo'lgani ma'qul:

a) tuproq fosfatlar bilan kam ta'minlangan fonda gektariga 150 kg azot va 150 kg fosfor berilsa ularning nisbati 1:1 bo'ladi. Agar azot dozasi gektariga 200 kg va fosfor dozasi 150 kg bo'lganda, ularning o'zaro nisbati 1:0,8 ni tashkil qiladi.

b) Tuproq fosfatlar bilan o'rtacha ta'minlangan fonda gektariga 150 kg azot va 100 kg dan fosfor berilsa, ularning o'zaro nisbati 1:0,7 ni azot normasi 200 kg, fosforni 150 kg bo'lganda esa, ularning nisbati 1:0,75 ni tashkil qilishi lozim.

v) Tuproq fosfatlar bilan yuqori darajada ta'minlangan fonda gektariga 150 kg azot va 100 kg fosfor berilsa, ularning o'zaro nisbati 1:0,6 ni; azot normasi 200 ni, fosforni 100 kg bo'lganda esa nisbat 1:0,5 ni tashkil qiladi.

Azotli va fosforli o'g'itlar dozasini va ularning o'zaro nisbati tipik bo'z tuproqlar sharoitida o'rganga G.I.Yarovenko, A.Yusupov, S.N.Evangeliiu (1974) shunday xulosaga kelishdi: bedapoya buzilgan birinchi yili azotli va fosforli o'g'itlar dozasi hamda ularning o'zaro nisbati o'g'it bilan kam ta'minlangan fond uchun 1:1,5; o'rtacha ta'minlangan fond uchun 1:1,25-1:1,5, yuqori ta'minlangan fond uchun 1:0,75-1,1 bo'lib bedapoya buzilib, ikkinchi yili paxta ekilishida, ularning nisbatlari tegishli 1:1-1,5; 1:0,75 va 1:1 bo'lishi kerak.

Xorazm viloyatining sho'rlanishiga moyil bo'lgan o'tloq tuproqlarida olib borilgan kuzatish natijalariga qaraganda, ikki yil davomida eng yuqori paxta hosili (50 s/ga) olingan bo'lib, bunda azotning fosforga bo'lgan nisbati 1:0,8 ni tashkil etgan.

Yuqorida keltirilgan azotli o'g'itlarning hamma normalarida azotning fosforga bo'lgan nisbatini 1:1 ga gektar yaqinlashtirish yoki aksincha, 1:0,5 dan uzoqlashtirish paxta hosilini pasayishiga olib kelar ekan.

Nihollarni bir tekisda qiyg'os undirib olish, yosh o'simtalarning rivojlanishini kuchaytirish, g'o'zaning shonalash fazasiga kirishini, gullashini va ko'sak tugishini, g'o'za tupini yaxshi shakllantirish, ko'saklarni ekishgacha va ekish bilan bir vaqtda o'g'itlash muhimdir.

O'zPITI ma'lumotlariga ko'ra, azotli ug'itlar yillik normasining 20-30 foizini ekishgacha yerga solish o'simlikning bir tekisda oziqlanishini va hosilning yetilishini tezlashtiradi, umumiy paxta hosilini oshiradi.

Buni quyidagicha izohlash mumkin: g'uza ontogeneza oziq elementlarini

o'zlashtirishda bir qator muhim davrlar borki, ulardan biri urug'ning unib chiqishi, ya'ni dastlabki chin barglar hosil qilishi davridir. Ana shu davrda tuproqda azot, fosfor va kaliyning optimal miqdorda bo'lish yosh niholarining o'sishiga ta'sir ko'rsatadi; ular tez o'sib rivojlanadi, kasalliklarga va iqlim noqulayliklariga bardoshli bo'ladi.

Mineral o'g'itlarni yerga solish usullari o'simlik tomonidan oziq elementlarining o'zlashtirilishiga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. O'g'itlarni tuproq betiga sohib, borona bilan ko'mib ketida o'g'it samaradorligining pasayishini shu bilan izoxlash mumkinki, bunda mineral o'g'itlarning ko'p miqdori tuproqning yuza qismida joylashdi, bu qatlamda esa o'simlik ildizininng kam qismigina joylashgan bo'ladi.

O'g'itlar chizel yoki kultivator o'g'itlagich yordamida solinganda ular tuproq qatlamlari bo'yicha butunlay o'zgacha joylashadi. Chunonchi, bunda yerga solingan o'g'itning 60 foiz bo'lgan qismi 10-15 sm chuqurlikda joylashgani holda 30 foizgacha qismi tuproqning 5-10 smli yuza qavatida qoladi.

X.O.Gulahmedov (1967) ma'lumotlariga ko'ra, azotli o'g'itlarning bir qismi yerga ekish oldidan, qolgan qismi esa uning samaradorligi eng yuqori bo'lar ekan. Azotli o'g'itlar yillik normasining 60 foizi ekish oldidan tuproqni ishlash paytida, qolgan 40 foizi shonalash fazasida berilganda, gektaridan 38 sentnerdan paxta hosili olingan.

O'g'itlarni tuproqqa ChKU markali chizel bilan 12-14 sm chuqurlikda ko'mish ham paxta hosilini oshirish- gektar boshiga 46,2 sentnerdan hosil olish va o'g'itni ekish oldidan chuqur ko'mish hisobiga olinadigan qo'shimcha hosilni gektariga 9,9 sentnerga yetkazish imkoniyatini beradi.

Shunday qilib azotli o'g'itlarni ekish oldidan turli xil usullarda solishning samaradorligi bo'yicha o'tkazilgan ko'p sonli tajribaning ko'rsatishicha, bu boradagi muvofiq keladigan eng yaxshi usul, o'g'itni kultivator o'g'itlagich yordamida, qator oralarini 25-30 sm qilib, 14-16 sm chuqurlikda berish, shuningdek, kuklam paytida 60-80mm gacha yog'in tushadigan yerlarda azotli o'g'itlarning ammiakli selitra turidan foydalanish- uni yer betiga sohib, erta bahorgi boronalash mahalida ko'mib yuborish hisoblanadi.

Azotli o'g'itlarning samaradorligini oshirishda ularni qullash muddatlarini aniqlash muhim rol o'ynaydi.

M.A.Belousov (1970), G.I.Yarovenko (1969) lar o'suv davri boshlarida g'o'zaning normal oziqlanishi muhim ahamiyatga ega ekanligini qayd qilib, g'o'zani (ekishgacha va ekish bilan bir vaqtda o'g'itlangan fonda) yana ikki marta oziqlantirishni tavsiya etadilar. Bunda ular birinchi oziqlantirishni shonalash davri boshlarida, ikkinchisini esa gullash fazasida o'tkazishni, agar g'o'za ekishigacha o'g'itlanmagan bo'lsa, u vaqtda o'suv davri mobaynida uch marta oziqlantirishni tavsiya qiladilar. Ularning tavsiyasida oziqlantirishlarni mumkin qadar barvaqt tugallashga alohida ahamiyat berilgan.

G'o'za shonalash boshlaganidan to hosili yetilgunga qadar azotning asosiy qismini o'zlashtiradi. Biologik qonuniyatlarga ko'ra o'simlikka azotning kelib turishi asta-sekin ortib boradi va gullash- meva tugushning ayni qizigan davrida maksimum darajaga yetadi. Birinchi konusdagi ko'saklar 30 kunlik bo'lgach, azotni o'zlashtirish pasaya boradi. Ana shu davrda g'o'zada shona, gul va tugunchalarning yoppasiga tukilishi ko'zatiladi. Ko'saklar ochila boshlashi bilan o'simlikka kelib turadigan oziq moddalar miqdori yana oshib boradi. Azotli o'g'itlarni kech berish ma'lum bir sharoitda, o'simlikning qayta o'sishini vujudga keltirishi va hosil yetilishini kechiktirishi mumkin. Azotli o'g'itlar berishni kech muddatlarga surish umumiy xosilni, shuningdek, sovuq tushganga qadar terib olinadigan xosil salmog'ini kamaytirib yuboriyapti (P.Rotosov, 1974).

G.I.Yarovenko, Yu.Xudoyberganov va boshqalar (1971) shuni ta'kidlaydiki, Xorazm viloyatining sho'rlanishga moyil bo'lgan tuproqlari sharoitida azot gektariga 250kg, fosfor 200kg dozada berilgan holda eng yaxshi natijaga erishiladi. Bunda 100 kg dan azot va fosfor yerni ko'klamgi haydash mahalida, 50 kg dan azot esa ekish oldidan va shonalash gullash fazalarida beriladi.

Azotli o'g'itning yuqorida keltirilgan normasini o'zgartirmagan holda 150 kg qismini ekish oldidan, 50 kg qismini 2-3 tadan chin barg chiqarganda va 75 kg dan shonalash va gullash fazalarida solish hosildorlikni biroz pasayishiga olib keldi. Bunda gektaridan olingan umumiy hosil 45,5 sentnerga to'g'ri kelgani holda,

qo'shimcha hosil 23,1 sentnerni tashkil etadi.

A.N.Mannonova va F.Qodirxo'jayev (1974) lar tomonidan o'tkazilgan tajribalarda, tipik bo'z tuproqlar sharoitida azotli o'g'it yillik normasining 55 foizigacha bo'lgan qismi ekish oldidan berilganda eng yaxshi natija olindi.

Shunday qilib, azotli o'g'itlar yillik normasining 25-50 foizgacha qismini ekish oldidan, qolgan qismini esa o'suv davrida ikki marta oziqlantirish tarzida berish eng yaxshi natija beradi.

Azotli o'g'itlarni to'g'ri qo'llash uning samarasini yanada oshiradi. Shuning uchun azotli o'g'itlarni yuqorida bayon qilingan fikrlar asosida va berilgan tavsiyalargi monand holda qo'llash o'g'itlardan foydalanish samaradorligini oshirish bilan birga mo'l va sifatli hosil olishni ta'minlaydi.

Fosforli o'g'itlarning ahamiyati va qo'llash me'yorlari haqida yuqorida bayon qilingan edi. Bu masalada ko'plab olimlar ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishganlar. Jumladan, S.S.Yarusov, S.A.Kudrin, N.P.Malinkin va boshqalar olib borilgan 64 ta tajriba natijalarini analiz qilib, shunday xulosaga kelishdi: fosforli o'g'itning asosiy qismini yerni haydash oldidan berish kerak, yillik normasi gektar boshiga 100 kg va undan yuqori bo'lgan hollarda o'g'itning bir qismi (25 foizgacha) o'suv davrida oziqlantirish uchun qoldiriladi.

Keyinchalik B.P.Machigin, Ya.I.Chumanov (1956), N.P.Malikin (1956) vaboshqalar fosforli o'g'ut normasining asosiy qismini (50-60%) yerni haydash oldidan, 10-20kg ni ekish bilan birga, qolgan qismini esa g'uzaning gullash fazasida solishni tavsiya qiladilar.

S.N.Rijov (1954), A.V. Sokolov (1957) g'uzaga fosfor berishning eng muvofiq muddati yillik dozasining asosiy qismini kuzgi shudgorlashda, qolgan qismini esa chigit ekish bilan bir vaqtda berishdir, deb hisoblaydilar. Ma'lumotlarga qaraganda, g'o'za dastlabki rivojlanish davrida va meva hosil qilish fazasida fosfor bilan oziqlanishi juda muhim ahamiyatga ega. Demak, fosforli o'g'it bilan oziqlantirishning ana shu sistemasida o'g'itni tuproqning nam yetarli bo'lgan qavatiga solish kerak. Bunda o'g'it g'o'zaning ildiz tizimi bilan yaxshi aloqada bo'ladi.

Fosfor yillik normasining hammasini yozgi o'suv davrida berish uchun

qoldirish kutilgan natijani bermaydi. Chunki bunda yerga solingan o'g'it tuproqning 15-18 sm li yuza qatlamida joylashib, tuproq qatlamlari bo'yicha bir xilda taqsimlanmaydi. Bundan tashqari uning asosiy qismi joylashgan qavatda nam tanqis bo'ladi. Shunday qilib, u o'simlik uchun kam layoqatli bo'ladi.

G.D.Korosteleva (1957) olib borgan tadqiqotlarda fosfor gektariga 175 kg normada ishlatilganda eng yuqori hosil (45,8 s/ga) erishildi. Bunda fosforning 150 kg qismi kuzgi shudgorlashda, 25 kg qismi esa chigit ekish bilan bir vaqtda berildi. Fosforli o'g'itning ana shu normasini o'zgartirilmagan holda 100 kg qismini kuzgi shudgorlashda, qolgan 45 kg qismini esa chigit ekish mahalida solish paxta hosilini bir oz pasayishiga olib keldi.

O'zPITI ning o'tloq tuproqlarida olib borilgan tajribalarda, fosfor yillik normasining 70% qismi kuzgi shudgorlashda, 30 % qismi esa g'o'zaning gullash davrida berilganda, gektaridan 37,8 s dan paxta hosil olindi. Shunday holatdagi sharoitda fosfor yillik normasining hamma qismi o'suv davrida qator oralarining o'rtasiga solingan paxta hosili pasayib, gektariga 33,4 sentnerni tashkil etdi.

Fosforli o'g'itning asosiy qismi kuzgi shudgorlashda berilganda yuqori samara ko'rsatishini o'g'it tuproqning 20- 30 sm chuqurligiga ko'milishi bilan izohlash mumkin. G'o'zaning ildiz tizimi shonalash va gullash davrida tuproqning ana shu chuqur qavatida joylashgan bo'ladi.

Mineral o'g'itlardan maksimal darajada samara olishda o'simlikning rivojlanish fazalari bo'yicha oziq moddalarini o'zlashtirish layoqati, tuproqda o'g'itning harakatlanishi va tuproqdagi oziq elementlari o'simlikning oziqlanishida fiksasiya qilinishi hisobga olingan bo'lishi kerak.

Xorazm viloyatining o'tloq tuproqlari sharoitida (S.Ro'zimetov tajribalari) fosforli o'g'itlarni ko'klamgi yer haydash mahalida va ekish bilan bir vaqtda chigit ko'miladigan tuproq qatlamining ostiga solish eng yaxshi samara bergan.

Fosforli o'g'itlarni ekish bilan bir vaqtda solishning smaradorligini O'zPITI da olib borilgan tajribalar ham isbotladi. Och tusli va tipik bo'z tuproqlarda olib borilgan 34 ta tajribada, ekish bilan bir vaqtda 10- 20 kg normada berilgan fosfor gektar boshiga 2 sentnergacha qo'shimcha hosil olish imkonini bergan.

Yuqorida keltirilgan adabiyotlar tahlilidan ma'lum bo'ldiki, g'o'zalarni to'g'ri oziqlantirish ertagi, sifatli va yuqori hosil yetishtirishni ta'minlar ekan. G'o'zaning "Omad" navi suv va oziqa moddalariga juda talabchandir. G'o'za nihollari suv va oziqa moddalari bilan erta muddatlarda ta'minlansa hosildorlikning yanada oshirish kuzatiladi. Shularni e'tiborga olib quyidagilarni xulosa qilish mumkin.

Belgilangan mineral va organik o'g'itlar yillik me'yorining bir qismini ekish oldidan yoki ekish bilan birga berish juda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Bunda g'o'zalarning oziqa moddalariga bo'lgan talabi o'z vaqtida qondirilib, o'sishi va rivojlanishi jadallashadi. Pirovard natijada ertagi va sifatli hosil yetishtirishga erishiladi.

II. Asosiy qism

2.1 G'o'zaning biologik xususiyatlari va hayot faktorlariga bo'lgan talabi

G'o'za gulxayrigullilar oilasiga, *Gossypium* avlodiga mansub bo'lib, uning juda ko'p tur va xillari bor. Keyingi ma'lumotlarga qaraganda, g'o'zaning 38 turi mavjud bo'lib, dehqonchilikda uning 5 turi ko'p tarqalgan.

G'o'za yer sharining issiq tropik mintaqasidan kelib chiqqan, ko'p yillik daraxtsimon o'simlik bo'lib, uning bo'yi 5 -6 metrdan 10 – 12 metrgacha yetadiganlari bor. Ular ko'p yil yashaydi. Past bo'yli shakllari tabiatan ko'p yillik bo'lsada, qishki sovuq urib ketganidan bir yillik o'simlik bo'lib hisoblanadi. Bordiyu bir yillik shakllari issiqxonada o'stirilsa ko'p yil o'saveradi.

O'zbekistonning ilmiy muassasalari kolleksiyasida g'o'zalarni 5 mingdan ortiq xili mavjud. G'o'zaning yovvoyi va madaniy xillarini ko'pligi seleksiyada duragaylash, tanlash, radiasiya va kimyoviy mutogenlari bilan ta'sir etish, gen – injenerlik uslublarini qo'llashyo'li bilan yangi g'o'za navlarini yaratish imkonini beradi.

G'o'zaning normal o'sishi va rivojlanishi uchun chigitning unib chiqishini ham qo'shganda, eng qulay harorat 25 - 30 daraja hisoblanadi. 25 darajadan past haroratda g'o'zaning rivojlanishi sustlashadi. Harorat pasayganda g'o'za rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi va bu yaqqol seziladi. Harorat 17 darajadan tushganda esa o'simlik rivojlanishi haddan tashqari sekinlashib ketadi. G'o'zaning rivojlanishiga optimal darajadan past harorat, optimal darajadan yuqori haroratga qaraganda kuchliroq ta'sir qiladi.

G'o'za rivojlanishining dastlabki paytlarida ko'pincha shonalash davrida, haroratning optimal darajagacha, ko'tarilishi o'simlikning o'sishi va rivojlanishini tezlashtiradi. Chigitning una boshlashi va g'o'zaning zo'rg'a rivojlanishi uchun yetarli bo'lgan minimal harorat 10-12 daraja hisoblanadi. Lekin L.G.arutyunovning kuzatishlariga qaraganda, chigit 10-12 darajada una boshlasa ham u yer betiga chiqa olmaydi. Chunki urug' pallani yer betiga ko'tarib chiqadigan palla osti tirsagining o'sishi uchun harorat kamida 146 daraja bo'lishi kerak. Shuning uchun juda erta, ya'ni

yer sernam, lekin harorat minimal darajadan past bo'lganda ekilsa, u siyrak unib chiqadi yoki butunlay unib chiqmaydi, chunki chigit yerda uzoq vaqt turib qolib unmaydi.

Haroratning 36- 37 darajadan oshib ketishi esa g'o'za to'qimalarini qizdirib yuboradi. 40 daraja va undan yuqori harorat esa o'simlikka qattiq ta'sir qiladi. Shuning uchun yozning jazirama issiq paytlari g'o'za ko'pincha tungi salqinda, ya'ni kunduzgi issiq qaytganda o'sadi. Haddan tashqari yuqori harorat g'o'zaning o'sishi va rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladi, jumladan gulidagi chang donachalari hayotchanlik qobiliyatini pasaytiradi. Bu esa tugunchalarning tushib ketishiga sabab bo'ladi.

G'o'za gulidagi chang donachalari o'zining hayotchanligining yo'qotishi natijasida gul tugunchasi urug'lanmay qolib, ko'plab shonalar to'kilib ketadi. Bunday hodisa garmsel shamoli esgan paytda ham kuzatilishi mumkin, chunki odatda changdonlar yorilib, changlanish sodir bo'ladigan ertalabki soatlarda garmsel ta'sirida havo haddan tashqari qurib, harorat ancha ko'tariladi. Haddan tashqari yuqori harorat g'o'zaning oziqlanish sharoitini susaytirib, tola chiqishini kamaytiradi, tola uzunligini qisqartirib, pishiqligini yomonlashtiradi. Nisbatan mo'tadil harorat esa tola chiqishini bir oz oshirib, uzunligini va pishiqligini ancha yaxshilaydi. Issiqlik yetishmaganda tola qisqaradiva unchalik pishiq bo'lmaydi, chigiti ham yaxshi rivojlana olmaydi. Bunday chigit paxta terib olingandan keyin ancha vaqt o'tgach yetiladi.

Yorug'likka munosabati. "Omad" navli g'o'zalar ham boshqa g'o'zalar singari yorug'sevar o'simlikdir. Barg yaproqlari, quyosh nurlarini tushishga qarab, o'z holatini o'zgartirib turadi. Yorug'lik yetishmasa hosil elementlari ko'plab to'kilib ketadi, fotosintez jarayoni sekinlashadi, hosildorlik keskin kamayadi. Masalan, L.Blogovishchenskiy ma'lumotiga ko'ra, g'o'za quyoshli kunda bir soat mobaynida 1,46 gramm moddani assimilyasiya qilgan bo'lsa, bulutli kunda esa bor yo'g'i 0,06 gramm moddani assimilyasiya qilgan xolos.

G'o'za tipik qisqa kun o'simligi bo'lganligi uchun yorug' kunning uzunligiga juda ta'sirchan bo'ladi. Tajribalarda kun uzunligini sun'iy ravishda 9 – 12 soatga keltirish g'o'za rivojlanishini tezlashtirib, yaxshi natijalar olingan, ya'ni hosil shoxlari poyaning pastki bo'g'inlaridan paydo bo'lgan, shonalash, gullash va pishish fazalari ertaroq boshlangan bunday tajribadan seleksiya ishida ham keng foydalanish mumkin.

Yoruqlikni boshqarish uchun ekin ekish yo'nalishini, ekish sxemasini to'g'ri tanlash, tup sonini to'g'ri belgilash, begona o'tlarga o'z vaqtida qarshi kurashishni tashkil etish lozim.

Suvga talabi. G'o'za quo'oqchilikka chidamli, lekin suvgv juda talabchan o'simlik. Uning transpirasiya koeffisienti 600 – 700 ga teng. Bu koeffisient o'sish sharoitiga qarab, 400- 800, 1000 va undan ham ortiq bo'lishi mumkin. Transpirasiya koeffisienti miqdori o'simlikni o'stirish sharoitiga bog'liq. O'sish sharoiti qancha yaxshi bo'lsa, transpirasiya koeffisienti shuncha kichik bo'ladi. O'simlik suvdan shunchalik samarali foydalanadi. G'o'zaning suvga bo'lgan talabi rivojlanish fazalari bo'yicha o'zgarib turadi. Gullash davrida uning mutloq suv sarfi yuqori darajaga ko'tariladi, chunki bu davrda o'simlik kuchli o'sib, unda juda katta bug'latish sathi vujudga keladi. Bundan tashqari gullash davrida g'o'za atrofidagi muhit havosining harorati va quruqligi yuqori darajaga yetadi.

Hosil pishish davrida g'o'zaning suv sarflashi yana asta – sekin kamayadi. Bu g'o'zaning hayot faoliyati, jumladan, o'sish jarayoni sustlashishi, o'simliklarda barglar qisman to'kilib, ayrim ko'saklar pishib, g'o'zaning umumiy sathi kamayishi bilan va bu davrda havo temperaturasi biroz pasayib, namligi biroz oshishi bilan bog'liqdir.

G'o'za butun o'suv davrida tuproq iqlim sharoitiga qarab gektariga 4000 – 7000m³ miqdorida suv talab qiladi. Shuning 55- 65 % gullash – ko'sak tugish davrida iste'mol qiladi. G'o'zaning suvga bo'lgan talabini sug'orish yo'li bilan qondirib, o'simlikning ildiz tizimi va yer ustki qismini mutanosib rivojlanishiga ta'sir etib, mo'l paxta hosili yetishtirish mumkin.

Oziq moddalarga bo'lgan talabi. G'o'zaning butun yer usti qismlari bilan birga bir tonna chigitli paxta yetishtirish uchun agrotexnika nuqtai nazaridan muhim bo'lgan, oziq elementlaridan taxminan: 50 kg azot, 10 kg fosfor, 50 kg kaliy bo'lishi kerak. Boshqa elementlardan: o'rta hisobda 50 kg kalsiy, 10 kg oltingugurt, 10 kg magniy va shuncha natriy 2 kg gacha temir, 200 grammgacha bur, 50 grammdan kamroq mis, B.V.Rogalskiy ma'lumoti bo'yicha 1,5 kg atrofida xlor bo'lishi kerak. Sho'r yerlarda o'stirilgan g'o'zaning oziq moddalarga talabi boshqacharoq bo'ladi. Bunda o'simlikka xlor, magniy va natriy ko'proq; kalsiy, temir va ba'zi elementlar

kamroq o'tadi. G'o'zaning har hil rivojlanish davrida azot, fosfor va kaliy kabi muhim oziq moddalarning kam yoki keragidan ortiqcha bo'lishi, o'simlikning rivojlanishiga, oqibat natijada undan olinadigan paxta hosiliga turlicha ta'sir etadi.

Rivojlanishning tastlabki davrida g'o'zaga fosforning yetishmay qolishi o'simlik ildiz tizimining rivojlanishini sekinlashtiradi, uning reproduktiv fazaga o'tishini kechiktiradi.

Aksincha bu davrda tegishli miqdordagi azot va fosforning yetarlicha bo'lishi g'o'za ildiz tizimining rivojlanishini tezlashtiradi, natijada o'simlik yer usti kismining o'sishi kuchayib, shonalash fazasi, tezroq boshlanadi. Binoabarin, qulay sharoit mavjud bo'lganda navbatdagi fazalar ham barvaqt boshlanadi.

Shunday qilib, g'o'zaning normal o'sishi, rivojlanishi hamda undan sifatli va mo'l paxta hosili yaratish uchun oziq moddalarning tuproqda tegishli miqdorda bo'lishigina emas, balki o'simlmkninsh turli rivojlanish fazalarida bu moddalarning tegishli nisbatda bo'lishi xam nihoyatda muhimdir.

2.2 G'o'za "Omad" navining tavsiya etilgan oziqlantirish va sug'orish rejimlari

G'o'zaning tez pishar, past bo'yli "Omad" navi O'zbekiston qishloq va suv xo'jaligi vazirligi tasarrufidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutida 1999 yili 02 tizmasidan analitik seleksiya uslubidan foydalanib yaratildi. 1995 yildan boshlab, Davlat nav sinash tarmoqlarida sinovdan o'tkazildi. 1999 yilda "Omad" navi Samarqand viloyati bo'yicha rayonlashtirildi.

"Omad" navining morfologik tavsifnomasi. Davlat nav sinash tarmoqlarining ma'lumotlariga ko'ra. "Omad" andoza "S -6524", "Namangan - 77", navlaridan 1 - 9 kun ertapishardir. O'sish davri 105 - 125 kun.

"Omad" navi ko'saklarining yuqori suratda ochilishi sababli rayonlashgan andoza navlaridan birinchi terim hosili bo'yicha 30-40 foiz ustunlikka ega bulsa, umumiy xosil buyicha andoza navlar bilan bir xil

yoki 5 - 15 foiz (36,0 - 42 s/ga) yuqori hosildor. Nav viltga va o'rgimchakkanaga chidamlidir.

O'simlik bo'yi 80,- 90 sm, tupi piramida shaklida, hosil shoxlari 1,5 nusxada. Birinchi hosil shoxi 5 bo'g'indan o'sib chiqadi, 1 -2 ta o'suv shoxlariga ega, bulardan ham meva shoxlari hosil bo'ladi. Poyasi yashil yotib qolmaydi, kuzga kelib qo'ng'ir tusga kiradi. Barglari o'rtacha kattalikda 3 - 5 yaproqli rangi yashil, kam tuklangan, qayiqsimon. O'simlikda barglar soni kam, ko'sagi yirik 4 - 5 chanoqli, tuxumsimon chuzinchok, uchli (6 - 7 g) paxta chanovdan to'kilib qolmaydi. Tola chiqimi 35 - 36 %, uzunligi 35 - 36mm. Tolasi mayin, oq rangli, yaltirok O'zGSUITI texnologiya laboratoriyasining ma'lumotlariga ko'ra, tola pishiqligi bo'yicha mikroneyr ko'rsatkichi. 4,4 - 4,65 g/k, tola mayinligi 153 - 155 (6000 - 6400), nisbiy uzilish kuchi 28,0 - 29 g/k, teks. Chigiti yirik, kul rang, 1000 ta chigit massasi 130 — 135 gramm, moy miqdori 18-20 %.

"Sifat" ma'muriyati (2000 yil) ma'lumotiga ko'ra, "Omad" navi mikroneyri 4,5 - 4,6 tola uzunligi 1,12 (35 - 37 mm), nisbiy uzilish uzunligi 29,3 g.k/teksni tashkil etadi.

Ishlab chiqarish sinovidan olingan ma'lumotlarda, ushbu nav boshqa rayonlashgan "S - 6524", "Namangan - 77" navlarga nisbatan ertagi va mo'l hosil beradi. Birinchi terimni o'zida hosildorlik 15-25 sentyabrda 28 - 32 s/ga, umumiy hosildorlik esa 36 s ni tashkil etadi.

Ekish uchun urug'lik chigit tayyorlash O'zQSXV ning o'rta tolali g'o'za navlarini ishlab chiqarishda ekishning umumiy qullanmasi asosida olib boriladi. Ekish muddatlari O'zbekistonning paxta ekuvchi mintaqalari uchun umumiy. Bundan tashqari "Omad" navi o'zining tezpisharligi hamda ko'saklarining ochilish surati yuqori bo'lganligi uchun qayta ekishda va donli o'simliklardan keyin 20 maydan 10 iyungacha ekilib, 25 -30 sentner hosil olish mumkin.

"Omad" navining yetishtirish texnologiyasi rayonlashgan navlar bilan bir xil, lekin bir ustunligi bor. "Omad" navi yetarli agrotexnika sharoitlarida yetishtirilganda past bo'yli bo'lgani uchun chekanka qilish kerak emas, yuqori agrofonda va ko'p sugorilganda uning buyi 110 - 120 sm gacha yetadi. Optimal ko'chat qalinligi unumdor bo'z va o'tlok yerlar uchun 90 - 100 mingga qator oralig'i 60 sm bo'lganda: 6 —7 tup

o'simlik (1p.m.da), 90 sm 1 p.m. da 8 - 9 o'simlik bo'lishi kerak. Unumsiz va sho'rxok yerlarda o'simlik qalinligi 10-15 mingga oshirish mumkin. Bunda gektarida 100 - 120 ming o'simlik bo'ladi. Ko'chat qalinligi ortishi o'simlikning rivojlanishi susaytiradi va yetilish muddati, ko'saklarning ochilish surati cho'ziladi.

Sug'orish bo'z tuproqlarda yer osti suvlar chuqur bo'lganda 1:3:1 sxemasida, bo'z va o'tloqi yerlarda yer osti suvlari yaqin bo'lganda sug'orish 1 - 2 marta kamaytiriladi. Birinchi suvni ertaroq berish lozim.

"Omad" navi baquvvat ildiz tizimiga ega bo'lganligi uchun noqulay iqlim sharoitlariga va suv tanqisligiga chidamlidir. Meva elementlarining to'kilishi ko'zatilmaydi.

Genetika immuniteta laboratoriyasida o'tkazilgan fitopotologik tahlillarda "Omad" navi "S - 6524" naviga nisbatan qora ildiz chirish va gommоз kasalligiga yuqori chidamli ekanligi aniqlandi.

Sirdaryo viloyatida joylashgan MMTS (Markaziy meliorasiya tajriba stansiyasi) da olib borilgan tadqiqotlarda "Omad" navi andoza "S-6524" va "AN-Bayovut-2" navlariga nisbatan sho'rga yuqori chidamli ekanligi aniqlangan. Navning xo'jalikka qimmatli belgilari (tola chiqimi, uzunligi, ko'sak yirikligi va h.k. boshqalar) taqqoslov ko'chatzorida "S-6524" va "AN-Bayovut-2" navlari ko'rsatkichlaridan qolishmaydi.

Mineral o'g'it berish miqdori tuproq unumdorligi va xo'jalikning hosildorlik rejasiga bog'liq. Hosildorlik rejası 35 - 40 s /ga bo'lganda, mineral ug'itlarning optimal berish miqdori toza miqdordan 1 ga uchun

qo'yidagicha: Azot 225 - 250 kg, fosfor 150 - 175 kg, kaliy 100 - 125 kg. Azotni uch muddatda berish maqsadga muvofiqdir: ekishda yoki birinchi kultivasiya, 2 - 3 ta haqiqiy barglar paydo bo'lganda 50 - 75 kg; shonalash davrida 102 — 125 kg; gullashni boshlanishida 75 - 100 kg, fosforning 50 foizi shudgor qilinganda, 50 foizi gullash davrida, kaliyning esa 50 foizi yer haydalganda, qolgan 50 foizini shonalash davrida berish kerak.

« Omad» g'o'za navini haroratga bo'lgan talabi, °C .

№	Rivojlanish fazalari	Quyi harorat chegarasi	Foydali harorat yig'indisi
1	Ekishdan - unib chiqqungacha	8,9	75,8
2	Unib chiqishdan-birinchi chin barg chiqarguncha	11,5	150,4
3	Birinchi chin barg chiqargandan-ikkinchi barg paydo bo'lguncha	12,1	220,6
4	Ikkinchi bargdan-uchinchi barg paydo bo'lishgacha	13,0	280,5
5	Uchinchi bargdan shonalashgacha	19,2	360,8
6	Shonalashdan - gullashgacha	14,0	505,9
7	Gullashdan - pishishgacha	11,4	858,3
8	Ekishdan - pishishgacha		1800,8

2.2. jadval

**«Omad» g'o'za navi o'suv davrlari bo'yicha organik modda to'planishi va
N,R,K o'zlashtirishi, %**

Ko'rsatkich- lar	Unib chiqqani- Dan 2-3 chin barglashgacha	2-3 chin barglash- Dan shonalash- gacha	Shonalash- Dan qiyg'os gullash- gacha	Qiyg'os Gullash- Dan ko'sak yetilguncha	Ko'sak yetilish Dan mavsum oxirigacha	Ham masi
1 Umumiy massaga nisbatan organik to'planishi, %	0,16	4,94	28,3	65,04	6,12	100
2 Umumiy miqdorga nisbatan o'zlashtirilgan						
Azot	0,13	10,0	29,2	48,9	11,4	100
Fosfor	0,20	8,6	18,9	53,5	18,8	100
Kaliy	0,10	7,2	21,8	57,7	13,2	100

2.3.jadval

Tuproqni harakatchan fosfor va almashinuvchan kaliy bilan ta'minlanishiga qarab ularning me'yorlari

№	Tuproqning oziq moddalar bilan ta'minlanish darajasi	1kg tuproqdagi mg harakatchan fosfor va kaliy moddasi		Azotga nisbatan fosfor miqdori	Azotga nisbatan kaliy miqdori
		Harakatchan fosfor	Almashinuvchi kaliy		
1	Juda kam	15>	10b>	1:1	1:0,5
2	Kam	16-30	101-200	1:0,7	1:0,4
3	O'rtacha	31-45	201-300	1:0,5	1:0,3
4	Ko'p	46-60	301-400	1:0,3	1:0,2
5	Juda ko'p .	60	400	1:0,1	1: 0,1

2.3. Mineral o'g'itlardan foydalanish samaradorligini oshirish tadbirlari

O'tloq tuproqlarning oziq elementlari bilan kam ta'minlangan maydonlarida g'o'zalarni oziqlantirishning optimal muddat va me'yorlarini batafsil o'rganish ishimizning asosiy maqsadimizdir. Buning uchun oziq elementlari bilan kam ta'minlangan maydonlarda o'tkazilgan dala tajribalari batafsil o'rganildi, tahlil qilindi.

Sug'oriladigan mintaqaning tuproqlari mexanik tarkibi tahlil etilganda o'rtacha qumoqli maydonlar ko'p bo'lib, 54,6 % ni og'ir qumoq tuproqlar, 29,5 % ni qolgan maydonlarni esa xira shag'al qumoq, ustunsimon mayda zarrachali tuproqlar tashkil etadi. Bu tuproqlarda fizik loyqa miqdori 33- 40 % (Valiyev, Shodmonov, 1968 y)bo'lib, strukturasi tuzilishida 0,25 mm dan kichik changsimon fraksiyalar miqdori 49-

60% ni (Slesareva, Nujdin va Boymatova, 1993) tashkil etadi. Tuproqning haydov qatlamida (10- 30 sm) gumus miqdori 1,24- 1, 42 % umumiy azot 0,098- 0,183 % , fosfor 0,122- 0,244 % , 30-050 sm qatlamida esa yuqoridagiga mos holda 1,20- 1,35; 0,040- 0,082; 0,128- 0,218 % ni tashkil etadi.

Paxta hosildorligi unga berilgan o'g'itlar miqdoriga emas, balki undan foydalanish sharoitlariga bog'liq bo'ladi.

Sharoit esa o'z navbatida tuproq, iqlim agrotexnik fon, o'simlikning ko'karib chiqishi, oziq moddalariga bo'lgan biologik ehtiyoji va boshqa omillarini hisobga olgan holda o'tkaziladigan agrotexnika tadbirlari kompleksi bilan belgilanadi.

Masalan, agrotexnika tadbirlari sifatsiz o'tkazilsa, ya'ni tuproqni ishlash, tuproq sho'rini yuvish o'z vaqtida o'tkazilmasa va sifatsiz bajarilsa, g'o'zaga berilgan o'g'it hosilni kam miqdorda oshiradi. Natijada azot hisobiga olinadigan hosil ancha kamayadi.

Sug'oriladigan dehqonchilik sharoitida o'g'itlarning ijobiy roli olib borilgan tajribalardagina emas, balki Respublikamizning ko'pchilik paxtakor xo'jaliklari faoliyatida ham tasdiqlangan. Ana shu xo'jaliklarda o'g'itlarni yuqori dozada ishlatishning iqtisodiy jihatidan samaradorligi o'zini oqlay olgan. Lekin o'g'itlar oshirilgan normalarda qo'llanilganda o'g'itlar tarkibidagi oziq moddalardan foydalanish koeffisienti sezilarli darajada kamayib boradi. O'g'it tarkibida bo'lgan oziq moddalarning ko'p qismi tuproqdagi o'g'it zapasini to'ldiradi, yoki bekorga nobud bo'lib ketadi. Ayniqsa, azotli o'g'itlar katta dozada ishlatilganda nobudgarchilik katta bo'ladi, chunki bu xildagi o'g'it mikroorganizmlarning hayot faoliyati ta'sirida parchalanib, atmosferaga uchib ketadi yoki bo'lmasa nitratlargacha oksidlanib tuproqning chuqur qatlamlariga, hatto sizot suvlarigacha yuvilib tushadi.

Respublikamiz xo'jaligining hosil bilan olib chiqib ketiladigan va tuproqda mikroorganizmlar tomonidan o'zlashtiriladigan oziq moddalar yerga solinadigan mineral o'g'itlar hisobiga to'la ravishda qoplanadi.

Ko'pchilik olimlarning aniqlashlariga qaraganda fosfatlar tuproq tomonidan o'zlashtirilishi natijasida yerga solingan o'g'itdan foydalanish koeffisiyenta 10 - 20 % ni tashkil qiladi. (A.B.Sokolov, 1968, 1950, 1958, B.P.Machigin, 1948, 1967).

I.M.Madramov tomonidan olib borilgan kuzatish natijalariga ko'ra (1965, 1968), g'o'zaga beriladigan o'g'itning samaradorligi asosiy oziq elementlarining o'zaro nisbatiga va agrotexnika tadbirlarining o'tkazilish muddatiga bog'lik. Azotli yoki fosforli ug'itlar bir tomonlama ishlatilganda, hatto yuqori agrotexnika qo'llanilganda ham ularning samaradorligi keskin ravishda pasayadi.

I.M.Malseva va boshqalar (1972) bo'z tuproqli sharoitda mineral o'g'it tarkibidagi azotdan foydalanish koeffitsiyenti almashlab ekish sharoitida 42-41 % atrofida o'zgarib turadi, degan hulosaga keldilar.

O'g'itlarning samaradorligi qo'llanilayotgan o'g'itning turiga ko'p jihatdan bog'lik bo'ladi.

Masalan, ko'p yillar mobaynida olib borilgan tajribalardan birida, azotli o'g'itlarni 8 yil davomida bir tomonlama ishlatish paxta hosilini kontrol variantdagiga qaraganda 2,5 baravar oshirib, azotli o'g'itlardan foydalanish koeffitsiyenti 31,4 % ni tashkil qildi.

Eng ko'p paxta hosili va azotdan foydalanishning yuqori koeffitsenti (50%) o'g'itlar to'liq holda aralashtirilib, g'o'zaga berilganda olindi.

2.4. - jadval

Paxta hosili bilan olib ketiladigan azot miqdoriga va g'o'zaning azotdan foydalanish koeffitsientiga o'g'itlarning ta'siri

Tajriba variantlari	Paxta hosili, g			O'g'it hisobiga olib ketilgan modda	Azotdan foydalanish koeffitsiyenti %
	Vegetativ organlari	Shundan paxta	Hosil bilan olib ketilgan azot		
Nazorat	7003,1	2391,6	86,0	-	-
N	13789,6	53952	206,7	120,7	31,4
NP	14696,8	5548,0	221,1	135,1	35,2
NPK	18250,4	7708,8	277,8	191,8	50,0

Paxta hosilini oshirishda va nobud bo'ladigan azot miqdorini kamaytirishda azotli o'g'itlar normalarini to'g'ri tanlash ahamiyatlidir.

Yomon agrotexnika - tuproqni o'z vaqtida ishlamaslik, sug'orishni kechiktirish yoki sifatsiz bajarish, chigitning ekish, shurlanishga moyil bo'lgan tuproqlarni yaxshi yuvmaslik va boshqalar o'g'it hisobiga olinadigan qo'shimcha hosil miqdorini kamaytirib yuboradi, natijada berilgan azotning hosil bilan qoplanish darajasi pasayib ketadi.

Nihollarni qiygos undirib olish, ularning rivojlanishini jadallashtirish, shonalash, gullash va meva tugish, fazalariga kirishishini tezlashtirish, yaxshi shakllangan g'o'za tuplariga erishishda g'o'zani ekishgacha muhim rol o'ynab, bu tadbir paxta terish texnikasidan yuqori unumda foydalanishni ham ta'minlaydi.

Azotli o'g'itlarni haydalgan yer yuzasiga sohib, keyin uni zig-zag barona bilan tuproqda ko'mish o'g'itning o'simlik uchun layoqatliligini, mineral o'g'itlarning samaradorligini va paxta hosilini pasaytirib yuboradi. Bunga sabab yog'ingarchilik kam bo'lgan yillari tuproqqa solingan o'g'itning asosiy qismi tuproqning yuza qatlamida qolib ketishidir.

Fosforli o'g'itlarni chigit ekish bilan bir vaqtda 10 va 20sm, gullash fazasida esa sug'orish egatlari tubidan 13 — 14sm chuqurlikda berish eng yuqori samaradorlikni ta'minladi. Bunda gektaridan 4,5 - 6,8 sentnerdan qo'shimcha hosil olinib, o'g'it tarkibidagi fosfordan foydalanish koeffisienti 10,9 - 29,8 foizga bordi.

Fosforli o'g'itlarni ekish bilan bir vaqtda berish ilgaridan paxta ekilib kelingan yerlarni va bedapoya bo'zilib birinchi yili paxta ekilishida yuqori samara beradi.

Fosforli o'g'itlar ekishgacha va ekish bilan bir vaqtda berilgan fonda, ayniqsa, azotli o'g'it qullanishning ahamiyati katta. Biroq shuni xam aytish kerakki mineral o'g'itlar normasi oshirilgan sari azotli o'g'it tarkibidagi azotdan foydalanish koeffisiyenta pasayib boradi.

Ye.A.Jorikovning yozishicha (1941), o'g'itlar dozasi oshgan sari paxta hosili ham ortib boradi, lekin azot dozasini gektar boshiga 180 - 200 kg ga yetkazish sarflangan har bir kg azotning hosil bilan qoplanishini pasaytiradi va o'g'itlardan foydalanish koeffisientini kamaytiradi.

Keyinchalik G.I.Yarovenko, G.P.Pershin, A.A.Umarov (1963), M.M.Pirzoda (1975) qayd qildilarki, azot normasini gektariga 100 dan 300 kg gacha oshirib, fosforli o'g'it dozasi ishiga muvofik tarzda ko'paytirilgan holdagina yuqori paxta hosili olish imkoni tug'iladi.

O'g'itlarni optimal muddatlarda berish va agrotexnika tadbirlarini o'z vaqtida samaradorligini ko'tarish mumkin.

Ammiakli selitra qator oralarining yoniga biroz sayoz qilib, (10 - 15 sm chuqurlikda) berilganda nitrat azot sug'orish mahalida berilgan suv bilan o'simlik qatorlari tomon yuviladi va tuproqning 0 - 15 sm qatlamida to'planadi. Tuproq namligining bug'lanishi oqibatida nitrat azot egatlarining qurg'oqsirab qolgan yuzasi tomon ko'tariladi va g'o'zaning ildiz sistemasi joylashgan zonasidan chiqib ketadi.

Shonalash fazasida o'simlik qatorlaridan 22 - 23 sm qochirib, sug'orish egatlari tubiga 3 - 4 sm chuqurlikda solingan o'g'itlardan o'simlik to'la foydalanadi.

Bu esa g'o'zani egat yon tomonidan oziqlantirishda azotli o'g'itlardan samarali foydalanishning muhim shart-sharoitlaridan biri hisoblanadi.

O'g'itlarni, ayniksa, azotli o'g'itlarni, qator oralarining yon tomoniga solishga alohida e'tibor berish lozim. Negaki, O'zbekistonda suv eroziyasiga duchor bo'ladigan ekin maydonlari umumiy ekin maydonining 10 - 12 qismini tashkil qiladi. Bu xildagi maydonlarda o'g'itlarni qator oralari o'rtasiga berish oziq moddalarining tuproq bilan birga yuvilib ketishiga sabab bo'ladi. Qatorlarning yon tomoniga berilgan o'g'itlar esa bu xildagi yuvilishdan saqlanib qoladi.

Respublikamiz paxta maydonlarining ko'p qismida g'o'zalar qator oralatib sug'oriladi. Agar o'g'itlar qator oralari o'rtasiga berilsa, azot so'g'orish maqsadida berilgan suvda 2 barovar ko'p yuvilib, tuproqning pastki qatlamlariga tushib ketadi, oqibatda g'o'za o'g'itdan yaxshi foydalana olmaydi.

2.4. "Omad" g'o'za navi agrotexnikasi

G'o'za "Omad" navining tavsifi: G'o'zadan barqaror yuqori va sifatli, raqobatbardoshli hosil yetishtirish uchun har bir dehqonchilik mintaqasining muayyan tuproq –iqlim sharoitiga tug'ri keladigan nav ekilishi zarur.

Hozirgi vaqtda Respublikamiz paxtachiligida yuqoridagi talablarga javob bera oladigan, viloyatimiz sharoitida yaratilgan, istiqbolli g'o'za navlaridan biri, Omad navi hisoblanadi.

Omad G.S.Zaysev nomidagi g'o'za seleksiyasi va urug'chiligi ilmiy tadqiqot institutining olimi R.Kim tomonidan yaratilgan. O'suv davri 115- 118 kun. G'o'zaning bo'yi 80-90 sm ga boradi. Ko'saklar tanaga yopishgan holda joylashgan. Ko'sak massasi 5,0-5,5 g. Hosildorlik 40 sentnergacha. Tola chiqishi 35-36 foiz. Tola uzunligi esa 33-34 mm ni tashkil qiladi. Tolasi V-tipga mansub. Mikroneyr ko'rsatgichi 4,5-4,6.

Suvga talabi o'rtacha, vilt bilan zararlanishi 5-8 foizni tashkil qiladi. Mineral o'g'itlarga o'rtacha talabchan.

Biologik xususiyatlariga ko'ra, tez pishar navlar guruxiga mansub bo'lib, ob-havo sharoiti va parvarishiga qarab, 120-125 kunda kusaklari ochila boshlaydi, eng muhim xususiyatlaridan biri, boshqa navlarga nisbatan to'plangan ko'saklarni ochilish jarayonini yuqoriligidir. Vilt kasalligiga chidamli. G'o'zaning Omad navi respublikamiz bo'yicha 350 ming gektardan ziyodroq maydonlarda, ya'ni Toshkent, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo viloyatlarida ekiladi.

"Omad" navining yetishtirish texnologiyasi rayonlashtirilgan navlar bilan bir xil, lekin ayrim ustunliklari bor, bu nav yuqori agrotexnika sharoitlarida yetishtirilganda. past bo'yli bo'lganligi uchun uni chekanka kilish kerak emas, noqulay iqlim sharoitlariga ancha chidamlidir. Shunday bo'lsada tuproqni ekishga sifatli qilib tayyorlash maqsadga muvofiqdir.

Tuproqni ekishga tayyorlash - bu tadbir o'z ichiga bir qator ishlarni o'z ichiga oladi. Bunga yerni haydash, chizel qilish, diskalash va baronalash kiradi. Bu ishlar natijasida tuproqning suv fizik xossalari yaxshilanadi. Kuzgi shudgorlashdan maqsad, yerni yumshatish, qishki ko'klamgi yog'in suvlarini yaxshilab singdirishdan, o'suv davrida yerning zichlangan ustki qatlamini pastga tushirishda begona o'tlar urugini o'simlik qoldiqlarini va tuproqni ustki qatlamlarida qishlaydigan zararli hashoratlarni haydalma qatlamning ostiga tushirishdan iboratdir. Kuzgi shudgorni 32-35 sm chuqurlikda o'tkazish lozim.

Sug'oriladigan rayonlarda kuzgi shudgorning bunday chuqurlikda haydalishi ayniqsa muhim. Chunki, bu yerda yoz issiq sug'orishda beriladigan suvlar ta'sirida organik moddalar tez chiriydi. Kuzgi shudgorni yana ham chukurroq o'tkazish yo'li bilan jarayonlarni bir muncha susaytirish mumkin. Bundan tashqari kuzgi shudgor chuqur o'tkazilsa, tuproqning suv o'tkazuvchanligi qobiliyati yaxshilanadi. Bu esa suvdan unumli foydalanishga imkon beradi.

Erta bahorda ya'ni mart oyining ikkinchi yarmida yoki kuz va qish davrlarida to'plangan namni saqlab qolish maqsadida tajriba maydonida baronalash o'tkaziladi. Bu o'tkazilgan agrotexnik tadbir o'sayotgan begona o'tlarni yo'qotish va paydo bo'lgan kesaklarni maydalash maqsadida o'tkaziladi. G'o'za o'stirishning eng muhim agrotexnik qoidalaridan biri chigit ekishdir. Chigitni yaxshi ishonchli yetarli darajada qizigan, nam yetarli bo'lgan tuproqlarga o'z muddatida nihollarni qiyg'os undirib olishning garovidir. Ekish ivitilgan dimlangan va dorilangan chigit bilan o'tkaziladi. Namlash esa har bir tonna urug'ga 600 - 700 litr suv bilan namlab 18 — 20 soat davomida dimlanadi. Ekish normasi gektariga 70 - 80 kg sarflanib, 4 - 5 sm chuqurlikda ekish bilan birgalikda har gektar maydonga 20 kg fosfor, 15 kg azot berish kerak. Optimal ko'chatning qalinligi unumdor bo'z va o'tloqi yerlar uchun 90 - 110 mingta qator oralari 60 sm bo'lganda 1 p.m. da 6 - 7 tup, 90 sm bo'lganda 1 p.m. da 8 - 9 o'simlik bo'lishi kerak. Unumsiz va sho'rxok yerlarda o'simlik qalinligini 10-15 mingga oshirish mumkin. Bunda gektariga 100 - 120 ming o'simlik bo'ladi. G'o'za har qator oralig'ini ishlash g'o'zani o'sishi va rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. G'o'za yoshi va yaxshi rivojlangan nozik paytida yaxshilab parvarish qilish lozim. Qator oralarini o'z vaqtida va sifatli ishlamaslik g'o'za hosildorligini kamayishining asosiy sabablaridan biridir. G'o'za qator oralarini ishlashdagi asosiy vositalardan biri kultivasiya qilishdir. Shuning uchun tajriba uchatkasida vegetasiya davrida 6 - 7 marta sifatli kultivasiya qilish lozim. Sug'orishgacha qator oralarini ishlash uchun ikkita britva va bitta g'oz panja ishchi organlari kqo'llaniladi. Sug'orishdan keyin kompleks ishchi organlaridan tuzilgan KKO va g'oz panjadan foydalaniladi. KKO ning asosiy vazifasi shundan iboratki, oldin o'tkazilgan ishchi organlaridan chuqur yumshatadi. Bunday tartibda ishlash kesaklarni yaxshi maydalaydi. Qator orasini ishlash kengligi har doim 40 - 45 sm ni tashkil qildi. Qatorlarning ikki tomonidan 8 - 10 sm, kenglikda himoya zonasi qoldirib turiladi. Ishlash chuqurligi qo'yidagicha o'tkaziladi; shonalashgacha 12 - 14 sm shonalash gullash davrida 15 - 20 sm chuqurlikda ishlov beriladi. Vegetasiya davrida jami 3 marta chopiq o'tkaziladi. G'o'zani oziqlantirishdan maqsad uning hosildorligini oshirishdir. tajriba maydonida mineral o'g'itlar berish miqdori tuproq unumdorligi xo'jalikning hosildorlik rejasiga bog'lik. Hosildorlik rejasi 3.5—40 s/ga bo'lganda gektariga sof holdagi azot 220 - 225, fosfor 160 - 170, kaliy 100 - 125 kg. Azotni 3 muddatda

berish maqsadga muvofiqdir, ya'ni 2 - 3 ta chin barglar paydo bo'lganda 50 - 75 kg shonalash davrida 100 - 125 kg, gullash boshlanishida 75 - 100 kg miqdorida berish lozim va nihoyat uchinchi oziqlantirish g'o'zaning gullash davrida yuqorida me'yorlarda o'tkazilishi kerak. Fosforli va kaliyli o'g'itlarning 50 % miqdori yerni shudgorlash oldidan berishadi, qolgan qismi ikkinchi va uchinchi oziqlantirishda beriladi, birinchi oziqlantirish kultivator KRX - 4 bilan o'tkaziladi. Bunda o'g'it qatorda 15 - 17 sm uzoqlikda, shonalashdavrida esa qatordan 20 - 25 sm uzoqlikda gullash davrida qatorning o'rtasida 18 - 20 sm chuqurlikda o'tkazish kerak. Suv o'simlik hayoti uchun eng yaxshi va eng muhim faktorlardan biridir. Mo'l paxta hosilini barvaqt yetishtirish uchun amalga oshiriladigan agrotexnika tadbirlari ichida g'o'zani o'z vaqtida sug'orish muhim ahamiyatga egadir. Sug'orish yer osti suvlari chuqur bo'lgan sharoitlarda 1:3:1 sxemada. yer osti suvlari yaqin bo'lgan yerlarda esa 1:2:1 yoki 1 - 2 - 0 sxemalarda sug'orish kerak. Birinchi suvni qo'sh egatlab, keyingilari esa har bir egatga tarash kerak. Keyingi yillarda o'rgimchakkana va ko'sak qurti kabi xashoratlarning kun, tarqaldi. Shuning uchun bularga qarshi kimyoviy dorilash o'tkazish kerak. G'o'zaning agrotexnik tadbirlari ichida chekanka ham muhim ahamiyatga egadir. G'o'zani g'ovlab o'sib ketishni oldini oladi. O'z vaqtida va sifatli qilib o'tkazilgan chekanka shona gul va tugunchalarni to'kilishini kamaytiradi har bir tupda tuliq ko'saklar yetilishi va tez pishish uchun sharoit yaratadi. Chekanka qilish natijasida har bir ko'sak og'irligi oshadi oqibatda hosildorlik yuqori bo'ladi. Chekanka o'z vaqtida sifatli o'tkazish qo'shimcha hosil olish imkonini beradi.

Defoliatsiya hosilning 90 % dan ortig'ini sovuq tushgunicha tyerib olish imkonini byeradi, mashinalarning ish unumi 20-25 % oshadi, bir sortga topshiriladigan paxta miqdori 4-5 % ortadi, mahsulot tannarxi arzonlashadi va yig'im tyerim muddati bir muncha qisqaradi.

Pryeparatlar g'o'za bargiga purkash yoki changlash yo'li bilan ta'sir yettiriladi. Bunda pryeparatlar barg xo'jayralariga singadi, uni shikastlaydi, to'qimalarni suvsizlantiradi, fotosintyez jarayoni buziladi, oqibatda barg qurib uzilib tushadi.

Defoliatsiyalarning ta'siri havo harorati va tuproq namligi bilan bog'liqdir. Havo harorati +18, +21 °S dan past bo'lmaganda, tuproq namligi dala sig'imiga nisbatan 65-70 % bo'lganida yuqori samaradorlikka yerishiladi.

Qo'l tyerimi ko'proq mashina tyerimi uchun noqulay, mos kyelmagan maydonlarda, hamda urug'chilik uchun ajratilgan paykallarda o'tkaziladi.

G'o'za hosili to'liq yig'ishtirib olingach, g'o'zapoya KV-4A va KV-3,6A moslamalar yordamida yig'ishtirib olinib, daladan olib chiqiladi yoki maxsus

mashinalar KI-1,2, KI-1,8, KIV-4 yordamida maydalanib, o'g'it sifatida dalaga syepilib, ko'mib yuboriladi.

2.5- jadval

Paxta yetishtirish uchun bajariladigan texnologik jarayonlar

T/r	Ish turlari	Sifat ko'rsatkichlari (me'ori, chuqurligi, kengligi)	Agregat tarkibi		Ishni bajarish muddatlari
			Traktor sinflari	Mashinalar va qurollar markalari	
1	2	3	4	5	6
Ekishgacha bo'lgan davr					
1	Mineral o'g'itlar tayyorlash	1,2 t\ ga	0,9 yoki 1,4 va 4-5 tk	2RTS-4-793 PU-0,5	Yil davomida
2	Sug'orish shaxobchalarini tozalash	15 m\ ga	4-5 tk	KN - 0,6	1.XII 10.XII
3	Muvaqqat sug'orish shahobchalarini tozalash	50 m/ga	4-5 tk	PR-0,5	20.XI 10.XII
4	Ko'p yillik begona o'tlarni taroqlab yig'ishtirib olish	Ikki marta	0,9 yoki 1,4 va 4-5 t k	V KS-1,8 VNX-3 2 PTS- 4- 793	20.X 10.XII
5	Yerni joriy tekislash		4 -5 tk	P-2,8 A	20.X 30.XI
6	Yerga go'ng solish		0,9 yoki 1,4	2 PTS-4- 793	20.X

7	Shudgorlash oldidan mineral o'g'it solish	R K50	0,9	RTT-42	5.XI 30.XI
8	Ikki yarusli plugda haydash	0-30,0-40 sm.	4 -5 tk-	PD-4	5.XI 30.XI
9	Shudgor marzalarini tekislash	Tekis	4 -5 tk	PN	5.III 25.III
10	Yerni erta bahorda baronalash	1,5 marta	1,4 yoki 4- 5 tk	SP-1 3 BZTU -4,0	10-25. IV.
11	Ekish oldidan yumshatish va bir yula boronalash		4 -5 tk %	ChKU	10-25. IV.
12	Ekish oldidan tekislash va bir yo'la boronalash		4 -5 tk	GN-28 VP- ZBZTU-1,0	10-25. IV.
13	Molalash		4 -5 tk	MV-6 A	10-25. IV.
Ekish davri					
14	Chigitni ekishga tayyorlash	50-60 kg /ga	Qo'lda	--	10 25. IV.
15	Chigitni ekish(ekish bilan bir yo'la gerbisid va o'g'itlar berish)	3-5 sm. 50-60 kg /ga	1,4 tk	CTX-IV	10-25. IV.

16	O'qariq olish	50 m/ga	4_5 tk	MK-2	10-30. IV.
Parvarish davri					
17	Qatqaloqni yumshatish		1,4 tk	ZBZB-4,0 MV-6A	10-25. IV.
18	Birinchi kultivasiya	6-8 sm chetki organlar, 10-12 sm o'rtadagi organlar	1,4 tk	KXU -4	25.IV-10 V
19	Yagonalash va xatosiga ekish	Bir metrga 6-7 tub	Qo'lda		5-15 V
20	G'o'za maydonlarini begona o'tlardan tozalash	3 marta	Qo'lda		5-20 V 15-20 VI 25 VII-10 VII
21	G'o'zani oziqlantirish	2-marta o'g'itlash tizimi bo'yicha	1,4	KXU-4	15-30 V 10-25 VI 1. VII-10 VII
22	Ikkinchi kultivasiya	8-10 sm chetki organlar, 18-20sm o'rtadagi organlar	1,4	KXU-4	25. V-5 VI
23	Dastlabki sug'orish uchun egat olish	15-18sm chuqurlikda	1,4	KXU-4	10. V I -20 VI
24	Dastlabki egatlab sug'orish	Egatlab	Qo'lda	KXU-4	13.V 1-25 V I
25	Dastlabki sug'orishdan so'ng kultivasiya	8-10 sm chetki organlar, 12-16sm o'rtadagi organlar	1,4	KXK-4	18.V 1-2 VII

26	Ikkinchi marta sug'orish uchun egatlar ochish	18sm Chuqurlikda	1,4	KXU-4	5.VII-20 VII
27	Ikkinchi marta egatlab sug'orish	1.000m 7ga Egatlab	Qo'lda		8.VII-25 VII
28	Ikkinchi sug'orishdan so'nggi kultivasiya	8 - 10 sm va 14-16- sm Chuqurlikda	1,4	KXU-4	; 15.VII-30 VII
29	Uchinchi marta sug'orish egatlarini ochish	18 sm	1,4		5.VII - 18 VIII
30	Uchinchi marta egatlab sug'orish	900-1000m ³ /ga Egatlab	Qo'lda		8.VIII - 22 VIII
31	To'rtinchi marta egatlab sug'orish	500-600m ³ /ga Egatlab	Qo'lda		5.IX- 15. IX
32	G'o'zani chekanka qilish		Qo'lda		25.VII- 5VIII
33	Defoliyasiya oldidan g'o'zani o'tash .		Qo'lda 1		25.VIII- 15.IX
Yig'im- terim davri					
34	Defoliyasiya	1,3 marta	1,4 tk	OVX-28	5.IX-25. IX

35		30-35% ko'saklar ochilganda	Qo'lda		5.IX-20.X.
36		Ikkinchi terimdan so'ng 12 - 15 kun o'tgach	Qo'lda 1		20.IX-5.X

2.5 Oziqlantirish muddat va me'yorlarining g'o'zani o'sishi, rivojlanishi va hosildorligiga ta'siri

O'g'it va uning tarkibida bo'lgan oziq moddalar o'simlikning biologik ehtiyojini qondirish uchun yoki tuproqning biokimyoviy rejimini yaxshilash uchun zarur bo'lgan holdagina hosildorlikni oshiradi, shu bilan birga tuproq unumdorlik darajasining ortishiga ta'sir ko'rsatadi.

Ma'lumki hosildorlik darajasi faqat ekishga berilgan o'g'it miqdorigagina emas, balki bu o'g'itdan foydalanish sharoitlariga ham bog'liqdir. Bu esa o'z navbatida tuproq - iqlim, qo'llaniladigan agrotexnik fon, umuman agrotexnika tadbirlari kompleksi bilan chambarchas bog'langan.

Nihollarni to'la undirib olish, rivojlanish fazalarini jadallashtirish, g'o'za to'pini yaxshi shakllantirish va hosilni yetishtirishda chigit ekish bilan bir vaqtda yerni ug'itlash muhim rol o'ynaydi. Shunga ko'ra, har gektar maydonga 45 - 60 kg ammiakli selitra va 80 - 100 kg superfosfat o'g'iti berish lozim.

Chigit ekish mahalida berish uchun eng maqbul kelidagan o'g'it turi ammofos hisoblanib, uning tarkibida fosfor 46 foizni, azot esa 12-14 foizni tashkil qiladi. Ammofos chigit ekish mahalida beriladigan bo'lsa, gektar boshiga 40 - 50 kg normada solinishi kerak. (Protasov, Kodirxujayev, 1981).

Azotli o'g'it yillik normasining qolgan qismi g'o'za o'suv davrida - shonalash fazasi, fosforli o'g'itlar esa azotli o'g'itlarga aralashtirib g'o'za gullay boshlaganda;

kaliyli o'g'itlar ham azotli o'g'itlarga aralashtirib g'o'zalar shonalay boshlaganda beriladi.

Mineral o'g'itlarni yerga solish texnikasiga va qator oralarini ishlash chuqurligiga alohida e'tibor berish lozim. Shonalash fazasida o'g'itlar sug'orish egatlarini ochish mahalida yerga solinishi kerak. Gullash davridagi oziqlantirishda esa o'g'itlar qator oralari o'rtasiga maxsus ishchi organlari yordamida beriladi. Odatda, g'o'zaga o'g'it berilishi bilan darhol sug'orilishi kerak, chunki bunda yerga solingan ozik moddalar tuproq profili bo'yicha bir tekisda taqsimlanadi va o'simlikning ildiz tizimi o'g'it bilan yaxshi bog'lanishda bo'ladi.

O'g'it berishni sug'orish bilan ana shu tartibda bog'lab olib borish, sug'orishdan keyin kultivasiya bilan o'g'it berishdagiga nisbatan hosilni gektariga 2 — 3 sentner oshirish imkonini beradi. Xuddi shu asosda ish yuritilsa g'o'zadan yuqori hosil yetishtirishga erishiladi.

G'o'zani zarur bulgan oziq elementlari bilan o'z vaqtida va to'liq ta'minlash yuqori hosil yetishtirishning asosi hisoblanadi. Oziqlantirishning qanday tashkil etilishi ko'saklarning erta yetilishi va yoppasiga ochilishini hamda sifatini ta'minlaydi.

G'o'za barcha ekinlar ichida eng ko'p o'g'it qo'llaniladigan o'simlik bo'lib, yetishtirilayotgan umumiy hosilning yarmidan ko'progi mineral o'g'itlar hisobiga olinmoqda.

"Omad" g'o'za navi oziqa elementdariga birmuncha talabchan bo'lib, hosil nishonalarining shakllanishi juda erta muddatlarda boshlanadi. Shunga ko'ra g'o'zaning yoshligida barcha talab etiladigan sharoitlarni yaratish, belgilangan o'g'itlar yillik me'yorini turli muddatlarda taqsimlab berish masalasi B. Nurullaev (2012 y) tomonidan o'rganilgan. Tajribasining birinchi variantida (nazorat) fosforli va kaliy o'g'itlar yillik me'yori to'lig'icha shudgorlash oldidan berilgan. Azotli o'g'itlar yillik me'yori esa g'o'za o'suv davrida, 3 muddatda, ya'ni shonalash davrida, gullash fazasini boshlanish davrida hamda me'yorlarining 50 foizi shudgorlash oldidan, qolgan qismi esa ekish bilan birga yoki g'o'za o'suv davrlarida 2 yoki 3 muddatda berilgan. Azotli o'g'itlar me'yorini bir qismi esa ekish bilan birga, qolgan qismi esa g'o'za o'suv

davrida, qo'shimcha oziqlantirish sifatida berilgan. Oziqlantirish rejimi g'o'zaning o'sishi va rivojlanishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

G'o'zaning o'sishi, rivojlanishi va hosildorligi haqidagi yakuniy ma'lumotlar 2.5-jadvalda berilmoqda. Ma'lumotlar taqqoslanib ko'rilganda, 5,6- variantlar birmuncha ustunlikka ega bo'lganligini fahmlash mumkin. G'o'za bosh poyasining bo'yi, 5- variantda 26,3 sm va 6- variantda esa 21,3- ga baland bo'lgan. Hosil shoxlari soni bo'yicha ham ushbu variantlar, nazoratdan ancha ustunlikka ega bo'lgan. Bu variantlarda hosil shoxlari soni 7- 7,4 donaga ko'p bo'lganligi ma'lum bo'lmoqda. Ko'saklar soni bo'yicha ham eng yuqori ko'rsatgich tajribaning 5 va 6- variantlariga to'g'ri kelmoqda. Ushbu variantda ko'saklar soni, nazoratdagidan 7,9-9,1 donaga ko'pdir.

2.6-jadval

Oziqlantirish muddat va me'yorlarining g'o'zani o'sishi va rivojlanishiga ta'siri

(B. Nurullaev, 2012 – y. ma'lumoti)

T.r	O'simliklar bo'yi, sm		Hosil shoxlari soni, dona		Ko'saklar soni, dona	
	1.VII	1.VIII	1.VII	1.VIII	1.VIII.06	1.IX
1.	58,6	76,3	7,6	9,0	53,3	7,5
2.	85,7	92,8	12,0	14,4	8,3	13,0
3.	91,8	98,2	12,6	15,3	9,3	14,3
4.	78,9	84,1	11,3	13,8	7,0	10,8
5.	96,8	102,6	14,5	16,4	10,8	16,6
6.	94,2	97,6	14,0	16,0	9,7	15,4

Variantlar, hosildorlik ko'rsatkichi bo'yicha taqqoslanganda ham yuqoridagi jarayon davom etganligi ma'lum bo'lmoqda. Birinchi variantda (nazorat) har gektaridan 30,8 sentnerdan hosil olingan bo'lsa, ikkinchi variantda hosildorlik biroz kamaygan va gektaridan 29,6 sentnerni tashkil etgan, bu nazoratdagidan 1,2 sentnerga kamdir. Buning asosiy sababi, g'o'za nihollarining oziqaga bo'lgan ehtiyoji yoshligida to'la qondirilmaganligidir. Chunki, sof holdagi 50 kg azot 80 kg fosfor biroz kechiktirib, g'o'zaning gullash - ko'sak tugish davrida berilgan.

Tajribaning uchinchi variantida o'rtacha hosildorlik, gektariga 33,5 sentnerni tashkil qildi. Bu nazoratdagidan 2,7 sentnerga ko'pdir. Demak, bu variantda g'o'zalarning oziqa moddalariga bo'lgan ehtiyoji yaxshiroq darajada qondirilgan. Sababi, fosforli o'g'itlarning tuliq me'yori hamda azotli o'g'itlarning asosiy qismi, erta muddatlarda berilganligidir. Tajribaning to'rtinch'i, beshinchi va oltinchi variantlarida hosildorlik nazoratdagiga nisbatan, tegishli ravishda 3,4; 4,9; 4,4 sentnerga ortiq bo'ldi. Buning asosiy sababi, o'g'itlar yillik me'yorining tug'ri taqsimlanganligi va optimal muddatlarda berilganligidir. Beshinchi variantda yuqori hosil olishga erishilganligining boisi shuki, azotli fosforli o'g'itlarning bir qismi ekish bilan birga berilganligidir. Bunda g'o'za nihollarining dastlabki kunlaridanoq oziqa moddalariga bo'lgan ehtiyoji to'liq qondirilgan.

Shunday qilib, "Omad" g'o'za navidan mo'l va ertagi hosil olish uchun optimal oziqlanish rejimiga rioya etish lozim ekan. Bunda mineral o'g'itlar yillik me'yorlari $N_{220} R_{160} K_{100}$ kg/ga bo'lgani holda, ularni qo'yidagicha; ya'ni shudgor ostiga $P_{80} K_{50}$; ekish bilan birga N_{50} kg/ga; o'g'itlarning qolgan qismini esa g'o'za o'suv davrida 2 marta qo'shimcha oziqlantirish shaklida berish lozim.

Oziqlantirish rejimining g'o'za hosildorligiga ta'siri s/ga
(B. Nurullaev, 2012-y, ma'lumoti)

T.r.	Qaytariqlar soni				ΣX	X
	I	II	III	IV		
1.	12,0	15,3	15,5	14,8	57,6	14,4
2.	30,6	32,0	33,2	30,2	126,0	31,5
3.	35,2	34,7	37,0	37,5	144,4	36,1
4.	25,3	27,4	25,7	27,6	106,0	26,5
5.	42,5	40,7	40,6	42,2	166,0	41,5
6.	38,0	39,5	39,7	36,8	154,0	38,5

EKIF05= 1.8 S/ga

Ma'lum bo'ldiki,tajribaning 5,6 – variantlari eng yuqori ko'rsatgichlarga ega bo'lgan. Demak, oziqa moddalari bilan kam ta'minlangan o'tloq tuproqlar sharoitida mineral o'g'itlarni oshirilgan me'yorlarda hamda mahalliy o'g'itlar bilan birgalikda qo'llash g'o'za hosildorligi va xomashyo sifatini oshishiga olib kelar ekan.

2.6 Har xil suv va oziqa rejimlarining g'o'za hosildorligiga ta'siri

Ilmiy tadqiqot ishlari ma'lumotlariga qaraganda suv va oziqa rejimlarining g'o'za hosildorligiga, ularning qimmatli xo'jalik belgilariga ta'siri katta ekanligi hisobga olingan.

Qattiq tutilgan 65-65-60 foizlik sug'orishi rejimida o'g'it me'yorlariga bog'liq holda hosildorlik har gektar maydon hisobiga o'rtacha 20,1-33,5 sentner miqdorida o'zgarib, eng kam hosil (20,1s) o'g'it ishlatilmagan nazorat variantidan olingan.

O'g'itlar me'yorlarining oshishi bilan g'o'za hosildorligi hamoshib, yuqoridagi suv rejimida (65-65-60 foiz) eng yuqori hosil (33,5 s) tajribaning 3- variantidan, ya'ni o'g'itlarning yillik me'yorlari gektariga N 200, P 140, K 100 kg miqdorida bo'lgan sharoitda parvarish qilingan g'o'zalardan olindi. Sug'orish rejimini 70-70-60 foizga ko'tarilishi bilan mutanosib ravishda g'o'za hosildorligi ham ko'tarilganligi aniqlangan.

Hosildorlik ushbu sug'orish rejimida (70-70-60 foiz) o'rtacha 23,2 s dan 36,2 s gacha oshib, tajribaning 65-65-60 foizlik rejimiga qiyoslaganda, o'rtacha 2,7-3,1 sentnergacha, o'g'it me'yorlariga, bog'liq holda oshganligi hisobga olingan.

Tajriba dalasidan eng yuqori hosil (36,2 sentner) 6- chi variantdan, ya'ni menereal o'g'itlarning yillik me'yorlari gektariga N 200, P 140, K 100 kg bo'lganda, 70-70-60foizli sug'orish rejimi qo'llanilgan variantdan terib olingan. Terib olingan hosilning jami miqdoriga nisbatan ham oshganligi hisobga olingan.

2.8-jadval

G'o'zani har-xil sug'orish va oziqa rejimlarida parvarish hilganda barg soni, sathini va quruq massasini o'zgarishi

Variantlar nomeri	Shonalash fazasida			Gullash hosil to'plash davrida			Pishish davrini boshlanishida		
	Barg	Barg	Quruq massa	Barg	Barg	Quruq massa	Barg	Barg	Quruq

	soni dona	sathi, sm2	si, G	soni dona	sathi sm2	si g	soni dona	sathi, sm2	massasi G
1	7,9	310,3	7,0	48,2	2036,4	34,3	53,7	3074,2	131,2
2	8,2	360,7	8,4	53,4	2248,3	38,7	66,7	3634,4	141,8
3	8,4	380,6	9,2	57,2	2336,4	41,4	69,8	3981,7	146,7
4	8,6	420,3	9,8	51,3	2234,3	37,7	69,3	3892,6	140,3
5	9,3	502,1	10,2	61,2	2548,2	45,7	74,3	4070,6	164,3
6	10,1	517,3	11,3	65,3	2641,3	47,2	78,2	4510,3	176,5

Birinchi terimda ko'p xosil, xar ikkala sug'orish rejimida xam, o'g'itlarning me'yori gektariga N 200, R140, K 100 kg miqdorida 3 va 6 variantlardan yig'ishtirib olindi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, nazariy variantida, ya'ni meniral o'g'itlar berilmagan variantlardan terib olingan hosilning ko'sak shaklidagi qismi eng kam miqdorni ya'ni sug'orish rejimlariga qarab, o'rtacha 2,2-3,2 sentnerlarni tashkil etdi. Vaholanki, o'g'itlarning har-xil me'yorda berilishi, o'rganilgan har ikkala sug'orish rejimida ham, jami hosilning ko'sak shaklidagi qismi o'rtacha 5,4-6,0 sentner miqdorda bo'lganligi hisobga olindi.

Ammo, tajriba dalasida sug'orish rejimlaridan qat'iy nazar, nazorat variantlaridan, ya'ni mutlaqo o'g'it berilmagan taqdirda eng kam hosildorlik aniqlanib, gektar boshiga o'rtacha 20,1-23,2 sentner miqdorni tashkil etdi.

Qo'yida keltirilgan 3.5-jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, o'g'itlarning ta'siri g'o'za hosildorligi aniq-ravshan ko'tarilib, tajriba bo'yicha sug'orish rejimlariga bog'liq holda o'rtacha 31,0-36,2 sentnergacha oshgan, ya'ni suv va oziqa rejimlarining g'o'za hosildorligiga ijobiy ta'siri yuqori ekanligi aniqlandi.

2.7 Paxta tolasining sifatiga suv va oziqa rejimlarining ta'siri

Ma'lumki, yetishtirilgan hosilning, ya'ni paxtaning sifati jahon andozalari talablariga mos, jahon bozorida raqobatbardosh bo'lishligi, Respublikamiz iqtisodiyotini rivojlanishini eng muhim shartlaridan biridir. Shularni e'tiborga olib, tajribada olingan hosil, laboratoriya sharoitida tahlil qilinib, uning qimmatli xujalik ko'rsatgich belgilari aniqlanildi.

Olingan natijalarni ko'rsatishicha, suv va oziqa rejimlari paxta xom-ashyosining sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi aniqlanildi. Tajribada o'rganilgan har ikkala sug'orish rejimlarida ham, meniral o'g'itlar berilgan 1,4-chi variantlarda (nazorat variantlari) paxtaning qimmatli xujalik belgilari, o'g'itlangan variantlar bilan solishtirilganda pasayib, sifatining yomonlashganligi ma'lum bo'ldi. Shuningdek, qattiq tutilgan sug'orish rejimida (65-65-60 foiz) ham shunday holat aniqlandi.

2.9-jadval

Turli suv va oziqa rejimlarining g'o'zaning hosildorligiga ta'siri

Vari- ant	Sug'orish rejimi foiz	Terimlar bo'yicha olingan hosil, s/ga				Jami hosil s/ga	Takrorlashlar bo'yicha olingan hosil, s/ga			O'rt acha hosil , s/ga
		1,10	10,10	19,10	2,11		I	II	III	
1	65-65-60	9,3	5,1	3,5	2,2	20,1	21,3	19,7	19,3	20,1
2		12,5	8,1	5,4	5,0	31,0	30,7	31,8	30,5	31,0
3		13,5	9,2	4,8	6,0	33,5	33,8	34,1	32,6	33,5
4	70-70-60	10,2	5,2	4,6	3,2	23,2	23,7	24,1	21,8	23,2
5		14,6	8,5	4,9	5,1	33,1	34,2	32,8	32,3	33,1
6		14,9	10,8	5,1	5,4	36,2	37,1	36,8	34,7	36,2

Qattiq tutilgan sug'orish rejimida (65-65-60 foiz), nazorat variantida (o'g'it berilmaganda) tola chiqishi 34 foiz, tola uzunligi 32 mm va 1000 dona chigitning vazni o'rtacha 113,0 gr.ni tashkil etdi. Xuddi shu sug'orish rejimida, o'g'itlangan variantlardan terib olingan namunalar tahlil qilinganda esa, bu ko'rsatkichlarni yaxshilanganligi ma'lum bo'ldi, ya'ni tola chiqishi 35 foizga, tola uzunligi 34mm ga va 1000 dona chigitning vazni 116,0gr. gacha oshganligi aniqlangan.

Tajribada qo'llanilgan o'g'itlarning me'yorlarning samaradorligi sug'orish rejimini 70-70-60 foizga oshirilgan variantlarda yanada yuqori bo'lganligi ma'lum bo'lgan.

Qattiq tutilgan sug'orish rejimida (65-65-60 foiz) har gektar maydon hisobiga N 200, R140, K 100 kg qo'llanilgan sharoitda o'stirilgan g'o'zalarning paxtasi tahlil qilinganda, tola chiqishi 35 foiz, tola uzunligi 34 mm va 1000 dona chigitlarning massasi 116 gr.ni tashkil qilgan bo'lsa, sug'orish rejimi 70-70-60 foiz bo'lganda, yuqorida keltirilgan o'g'itlar me'yorida esa, tola chiqishi 37 foizga, tola uzunligi 37 mm.ga va 1000 tdona chigitlarning massasi 120 gr.ga oshganligi aniqlangan.

Demak, tajribada o'rganilgan 70-70-60 foizlik sug'orish rejimida, o'g'itlar me'yori gektariga N 200, R140, K 100 kg bo'lganda, paxtaning qimmatli xujalik ko'rsatkich belgilari yuqori bo'lganligi va paxtaning sifatini oshganligi hisobga olingan.

Paxta tolasining sifatiga suv va oziqa rejimlarini ta'siri 2.10.-jadval

Variant	Sug'orish rejimi foiz	O'g'itlar me'yori, kg/ga			Tola chiqishi, foiz	Tola uzunligi, mm.	1000 dona chigi vazni, G
		N ₂	PO ₂	K ₂ O			
1	65-65-60	-----	-----	-----	34	32	113
2		150	100	75	35	32	116
3		200	140	100	35	34	116
4	70-70-60	-----	-----	-----	35	33	116
5		150	100	75	36	34	117
6		200	140	100	37	34	120

2.8 Paxtachilikda maqbul oziqlantirish muddat va me'yorlarining iqtisodiy samaradorlikka ta'siri

Paxtachilikda mehnat unumdorligining ortib borishi bilan mahsulot birligiga to'g'ri keladigan mehnat haqi va moddiy xarajatlarining miqdori va hissasi ham kamayib, qo'shimcha qiymat me'yorlari esa ko'payib boradi. Shu sababdan har gektar paxta maydoni hisobiga olinadigan foyda va qo'shimcha qiymat miqdori ortib boradi. Ijtimoiy mehnat unumdorligining tuxtosiz ortib borishi umumiy iqtisodiy qonuniyatining harakatiga bog'liq.

Paxtachilikda qo'shimcha qiymat me'yorining ortib borishiga ta'sir etuvchi omillarni ikki guruhga ajratish mumkin:

- a) ijtimoiy ta'sir etuvchi omillar
- b) salbiy ta'sir kursatuvchi omillar

1-guruh omillariga tarmoqli yuqori samara beradigan ishlab chiqarish vositalarini qullash, yuqori malakali ishchi kuchidan foydalanish va boshqalar kiradi.

Paxtachilikdan yuqori iqtisodiy samaradorlikni ta'minlaydigan texnologik jarayonlarni tajribada o'rganish va amaliyotda qo'llash eng dolzarb masalalardandir.

Ma'lumki, paxtachilikda olinayotgan hosilning yarmidan ortiqrog'i mineral o'g'itlar hissasiga to'g'ri kelmoqda. Mineral o'g'itlarining belgilangan yillik me'yorini to'g'ri taqsimlab berish, shuningdek o'g'itlarni berish muddatlari va tuproqqa solish chuqurliklarini to'g'ri tanlash undan foydalanish samaradorligini yanada oshiradi. Pirovard natijada g'o'za hosildorligi oshib boradi.

B. Nurullaev dala tajribalari natijalari quyidagicha hisoblangan. Dastlab, nazoratga nisbatan olingan qo'shimcha hosil miqdori so'ngra shu hosilni sotish hisobiga keladigan daromad hisoblab topilgan. Qo'shimcha hosil va olingan daromad miqdori bo'yicha 5 va 6 variantlar ustunlikka ega bo'lgan.

Ikkinchi navbatda qo'shimcha paxta hosilini yaratish uchun qilingan sarf, xarajatlar ko'lamini hisoblandi. Bunda o'g'itni shudgorlash oldidan yerga solish xarajatlari, ekish oldidan, ekish bilan birga va qo'shimcha oziqlantirish tarzida berilgan

o'g'itlarning xarajatlari variantlar bo'yicha aniqlandi, ular o'rta hisobda 63,5-93,5 ming so'mni tashkil etgan.

2.7- jadval ma'lumotlaridan ma'lum bo'ldiki, eng ko'p qo'shimcha daromad tajribaning 5 va 6 variantlaridan olingan, tegishli ravishda 2905 va 2695 ming so'mni tashkil etgan. Shartli sof foyda miqdori bo'yicha ham aynan shu variantlar ancha ustun ko'rsatkichga ega bo'lgan. Har bir gektar maydondan beshinchi varianta 1478,3 ming so'm, oltinchi variantda esa 1304,3 ming so'm sof foyda olingan. 3-variantdan 1195,1 ming so'm, 4-variantdan esa 671,3 ming so'm sof foyda olingan. Tajribadagi 5-va 6-variantlardan organik va mineral o'g'itlar yillik me'yori to'g'ri taqsimlanganligi bois yuqori hosil va iqtisodiy samara olingan.

Bundan yuqori iqtisodiy samara olinishiga o'g'itlar yillik me'yorini to'g'ri taqsimlanishi va optimal muddatlarda berilishi sabab bo'lgan. Oziqa moddalari bilan kam ta'minlangan o'tloq tuproqlar sharoitida chigit ekish bilan birga azotli va fosforli o'g'itlar berilishi g'o'za nihollarini seravj va sog'lom bo'lib rivojlanishini ta'minlagan. Shu sababdan g'o'zalarni rivojlanishi va ko'saklarni pishib yetilishi maqsadga muvofiq tarzda bo'lgan.

Yuqorida qo'llanilgan agrotadbirlar majmuasi ta'sirida «Omad» g'o'za navi ertagi va sifatli hosil yetishtirilib, yalpi hosilning 95 foizi yuqori navlarga sotilgan.

**Maqbul oziqlantirish muddat va me'yorlarining iqtisodiy
samaradorligiga ta'siri.**

№	Ko'rsatkichlar	Variantlar					
		I	II	III	IV	V	VI
1	G'o'za hosildorligi, s/ga	14,4	31,5	36,1	26,5	41,5	38,5
2	Nazoratdan farqi, s/ga	-	17,1	21,7	12,1	27,1	24,1
3	Yalpi daromad, ming so'm/ga	1008	2205	2527	1855	2905	2695
4	Nazoratdan farqi, ming so'm/ga	-	1197	1519	847	1897	1687
5	O'g'itni yerga solish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar, ming so'm/ga	-	63,5	63,5	30,0	93,5	93,5
6	Qo'shimcha hosilni terish va topshirish xarajatlarini, ming so'm/ga	-	205,2	260,4	145,2	325,2	289,2
7	Jami xarajatlar, ming so'm/ga	-	268,7	323,9	175,2	418,7	382,7
8	Shartli sof foyda, ming so'm/ga	-	928,3	1195,1	671,8	1478,3	1304,3

III. Respublikamiz sharoitida iqtisodiy inqirozni oldini olish yo'llari va choralari

Bugungi kunning eng dolzarb muammosi – bu 2008 yilda boshlangan jahon moliyaviy inqirozi, uning ta'siri va salbiy oqibatlari, yuzaga kelayotgan vaziyatdan chiqish yo'llarini izlashdan iborat.

Avvalo, jahon moliyaviy inqirozi haqida. Bu inqiroz Amerika Qo'shma Shtatlarida ipotekali kreditlash tizimida ro'y bergan tanglik holatidan boshlandi. So'ngra bu jarayonning miqyosi kengayib, yirik banklar va moliyaviy tuzilmalarning likvidlik, ya'ni to'lov qobiliyati zaiflashib, moliyaviy inqirozga aylanib ketdi.

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'riladigan zararining darajasi va ko'lami birinchi navbatda shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q, deb o'ylayman.

Shu o'rinda O'zbekistonda moliyaviy-iqtisodiy, byudjet, bank-kredit tizimi, shuningdek, iqtisodiyotning real sektori korxonalari va tarmoqlarining barqaror hamda uzluksiz ishlashini ta'minlash uchun yetarli darajada mustahkam zahiralar yaratilganini va zarur resurslar bazasi mavjud ekanini ta'kidlash joiz.

Shu borada 2006 yilda tashkil etilgan «Mikrokreditbank» ning faoliyati xususida alohida to'xtalish joiz. Mamlakatimiz hududlarida 78 ta filiali va 270 dan ziyod minibanki faoliyat ko'rsatayotgan mazkur bank kichik biznes va xususiy tadbirkorlik tarmog'ini kreditlar bilan ta'minlashga xizmat qilmoqda.

2007–2008 yillar davomida o'zlashtirilgan chet el investisiyalari hajmi 2,5 barobardan ko'proq oshganining o'zi ham buni tasdiqlab turibdi.

Umuman, 2009 yilda mamlakat iqtisodiyotiga kiritiladigan xorijiy va ichki investisiyalarni hisobga olganda, kapital qo'yilmalarning umumiy hajmi kamida 25 foizini tashkil etadi.

Tabiiyki, yuqorida keltirilgan misol va raqamlardan tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bo'lmas xato bo'lur edi.

Bir so'z bilan aytganda, mamlakatimizda global inqirozning oqibatlarini, bugungi va ertangi kutiladigan ta'sirini hisobga olgan holda, qat'iy, har tomonlama o'ylangan keng ko'lamli loyihalar bugun amalga oshirilmoqda.

Albatta, mamlakatimizda bunday chora-tadbirlar tatbiq qilinishi bilan bir qatorda bu jiddiy sinovni yengish, hych shubhasiz, ko'p jihatdan hammamizdan avvalo mas'uliyatimizni teran his qilishni, barcha imkoniyat va resurslarimizni ishga solishni talab qiladi.

2008 yilda yalpi ichki mahsulotning o'sish sur'atlari 9 foizni, sanoatda 12,7 foizni, jumladan, iste'mol tovarlari ishlab chiqarishda 17,7 foizni tashkil etdi, xizmat ko'rsatish hajmi 21,3 foizga o'sdi.

Iqtisodiyotning boshqa muhim tarmoqlari ham barqaror sur'atlar bilan rivojlandi: qurilish – 8,3 foiz, transportda yuk va yo'lovchi tashish hajmi – 10,2 foiz, savdo sohasi – 7,2 foiz o'sdi. Qishloq xo'jaligida 4,5 foiz o'sishga erishilib, 3 million 410 ming tonna paxta xom-ashyosi tayyorlandi, 6 million 330 ming tonna g'alla, shu jumladan, 6 million 145 ming tonna bug'doy yetishtirildi.

2008 yilda o'rtacha ish haqi byudjet tashkilotlarida 1,5 barobardan ziyod, butun iqtisodiyot bo'yicha esa 1,4 barobar oshdi. Natijada o'rtacha ish haqi miqdori 300 AQSh dollaridan ortiq bo'ldi. Aholining real daromadlari esa yil davomida jon boshiga 23 foiz ko'paydi.

2009 yilni oldigan bo'lsak, o'rtacha ish haqi miqdorini byudjet sohasida – va shunga mos ravishda xo'jalik yurituvchi subyektlarda ham – 1,4 barobar oshirish ko'zda tutilmoqda. Inflyasiyaning o'sish ko'rsatkichini 7 – 9 foiz darajasida saqlab turish mo'ljallanmoqda.

Mamlakatimizda tarkibiy o'zgarishlarni izchil amalga oshirishda qulay investisiya muhitining yaratilgani asosiy omil bo'lib kelmoqda. 2008 yilda iqtisodiyotni rivojlantirish uchun barcha moliyaviy manbalar hisobidan 6,4 milliard AQSh dollari miqdorida investisiya jalb etildi. Bu 2007 yil bilan taqqoslaganda, 28,3 foizga ko'p bo'lib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan investisiyalar hajmi 23 foizni tashkil etadi.

Keyingi yillarda O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investisiyalar hajmining izchil va barqaror o'sib borayotgan e'tiborga sazovordir. 2008 yilda 1 milliard 700 million AQSh dollari miqdoridagi xorijiy investisiyalar o'zlashtirildi. Bu 2007 yildagiga nisbatan 46 foiz ko'p demakdir. Eng muhimi, xorijiy investisiyalarning 74 foizini to'g'ridan-to'g'ri investisiyalar tashkil etdi. Jahon inqirozi davom etayotganiga qaramasdan, 2009 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga jalb etiladigan xorijiy investisiyalar hajmi 1 milliard 800 million dollarga ko'payadi, buning to'rt dan uch qismi to'g'ridan-to'g'ri investisiyalardir.

2008 yilda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini yanada oshirish prinsipial muhim ahamiyatga ega ekanini inobatga olib, fermer xo'jaliklariga ajratilayotgan yer maydonlarini optimallashtirish borasida zarur ishlar amalga oshirildi.

Dastlab zarar ko'rib ishlaydigan, rentabelligi past va istiqbolsiz shirkat xo'jaliklarini tugatish negizida tashkil etilgan xususiy fermer xo'jaliklari bugungi kunda haqli ravishda qishloqda yetakchi bo'g'inga – qishloq xo'jalik mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi asosiy kuchga aylandi.

Har yili fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda moddiy resurs va mablag'lar ajratilmoqda. Faqat o'tgan 2008 yilning o'zida qishloq xo'jalik mahsulotlarining eng muhim turlarini yetishtirish uchun 1 trillion so'm, jumladan, paxta tayyorlashga – 800 milliard so'm, g'alla yetishtirishga 200 milliard so'm mablag' avans tariqasida berildi. 2009 yilda ushbu maqsadlar uchun 1 trillion 200 milliard so'm yo'naltiriladi.

Bugungi kundagi asosiy vazifamiz – har bir loyihani qisqa muddatlarda barcha manfaatdor tuzilmalar, birinchi navbatda, xorijiy investorlar bilan birgalikda batafsil

ko'rib chiqish, ular bo'yicha kelishuvlarni oxiriga yetkazish va 2009 – 2014 yillarga belgilangan ushbu strategik muhim dasturning qabul qilinishini tezlashtirishdir.

Yuqorida zikr etilgan vazifalarni inobatga olgan holda, 2009 yilgi iqtisodiy dasturimizning ikkinchi eng muhim ustuvor yo'nalishi – boshlangan tarkibiy o'zgarishlarni va iqtisodiyotni diversifikasiya qilish jarayonlarini davom ettirishdir.

Mahsulot raqobatdoshligini ta'minlash uchun ishlab chiqarishni texnik va texnologik yangilash bo'yicha katta va kichik loyihalarni izlash, buning uchun zarur mablag' va manbalarni topish – bu har bir korxona rahbari va muhandis-texnik xodimlarining birinchi navbatdagi eng muhim vazifasi va majburiyati bo'lmog'i kerak.

Alohida e'tibor qaratish lozim bo'lgan navbatdagi eng muhim ustuvor vazifa – qishloqda turmush darajasini yuksaltirishga, qishloqlarimiz qiyofasini o'zgartirishga qaratilgan uzoq muddatli va bir-biri bilan chambarchas bog'liq keng ko'lamli chora-tadbirlarni amalga oshirish, ijtimoiy soha va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishni jadallashtirish, mulkdorning, tadbirkorlik va kichik biznesning maqomi, o'rne va ahamiyatini tubdan qayta ko'rib chiqish, fermer xo'jaliklari rivojini har tomonlama qo'llab-quvvatlashdan iboratdir.

Bank ishini yanada takomillashtirish, aholi va xo'jalik yurituvchi subyektlarning bo'sh mablag'larini tijorat banklari depozitlariga jalb qilishni rag'batlantirish ishlari ham 2009 yilda ustuvor vazifa bo'lib qoldi.

IV. Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilishning mohiyati va asosiy yo'nalishlari

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov parlament qo'shma majlisidagi ma'ruzasida parlament tomonidan amalga oshirilgan erishilgan yutuqlarni qayd etish bilan birga ikki palatali parlament faoliyatidagi ayrim kamchilik va nuqsonlar foydalanilmay qolib ketgan imkoniyatlar haqida ham o'z fikr va mulozalarini bayon qiladi. Albatta bu oliy majlisning kelgusi 5 yillik faoliyatini asosiy vazifalari va ustuvor yo'nalishlari belgilab olinayotgan bir sharoitda muhim ahamiyatga ega.

Kamchilik va nuqsonlar foydalanilmay qolgan imkoniyatlar, hamda va ustuvor yo'nalishlari qo'yidagilardan iborat qilib ko'rsatilgan.

Birinchidan, qonunchilik palatasi faoliyatidagi eng katta kamchiliklardan biri uning qonun ijodkorligi ishlari bo'yicha chuqur va har tomonlama puxta ishlab chiqarilgan.

Mamlakatimizda amalga oshirilgan ijtimoiy – iqtisodiy, ijtimoiy siyosiy ishlarni mo'ljallangan o'z dasturlariga ega emasligida ko'rinadi.

Bu ko'pincha qonunlarning aniq bir tizimiga rioya qilmagan holda ularning qonunchilik tashabbusi hududiga ega bo'lgan subyektlar tomonidan kiritilishiga qarab qabul qilishga olib kelayotgan sabablaridan biridir.

Ikkinchidan, deputatlar kurpusining sustkashligi tufayli iqtisodiy siyosiy qonunida, sanalari jadal rivojlanayotgan islohatlarni amalga oshirish uchun hayotiy zarur bo'lgan qonunlar kiritilmagan.

Qonunchilik palatasiga taqdim etilgan 297 ta qonun loyihasidan atiga 44 tasi deputatlar tashabbusi bilan kiritilgan xolos.

Ayni paytda 42 ta qonun loyihasi bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan taqdim etilgan 160 ziyod qonun loyihasi esa mamlakat hukumati (vazirlar mahkamasi) tomonidan kiritilgan bo'lib ularning aksariyati O'zbekiston Respublikasi

Prezidenti tomonidan farmonlar munosabati bilan ijrosini ta'minlash munosabati bilan taqdim etilgan.

Uchinchidan, qabul qilinayotgan qonunlarning sifatini tubdan yaxshilash talab etiladi, ularning ko'pchiligi amaldagi qonun hujjatlariga o'zgartirish tuzatish va qo'shimchalar kiritilishiga qaratilgan bo'lib kodeksikasiyalash tavsifiga, ya'ni muayyan darajada tizimlashuv majmuiga ega emas, qabul qilinadigan, qonun loyihalarida amaldagi qonun hujjatlaridan farq qilingan tafovutlarga yo'l qo'yilgan boshqa hujjatlarga havola qilish holatlari ko'p. Asosiy kamchiligi shundaki qabul qilinadigan qonunlarda aksariyat o'rinlarida ana shu hujjatlarning hayotga tadbiq etilishini ta'minlaydigan prosessual mexanizmlarning mavjud emasligida ko'zga tashlanadi. Bu esa o'z-o'zidan ushbu hujjatlarning qo'llanilishini sezilarli darajada qiyinlashtiradi, qonunlarning ijro etilmasligiga hududiy normalarning oshkor qilinishiga hududiy qo'llash ahamiyati samaradorligining pasayishiga olib keladi.

To'rtinchidan, qonunda ko'zda tutilgan deputatlik nazorati va hududni qo'llash amaliyotini takomillashtirishga ta'sir ko'rsatish shakllaridan sust foydalanilmoqda. Qonunchilik palatasi o'tgan davr faoliyatida doim bir nechta xususan innovasion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish kimyo sanoati korxonalari qurilishini jadallashtirish va yangi turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish bilan bog'liq masalalar bo'yicha parlament so'rovi amalga oshirilgan, bu yetarli emas albatta.

Beshinchidan, parlament deputatlarining o'z saylov oldidagi faoliyatini sezilarli darajada yaxshilash talab etiladi.

Oltinchidan, qo'yi va yuqori palatalar amaliy faoliyatining dastlabki davrida har ikki tomonning o'z amlisiylarining namoyon bo'lishi bilan bog'liq bo'lgan jiddiy muammolar ko'rsatiladi.

V. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish

Muhtaram Prezidentimiz I.A. Karimov o'tgan yil yakunlarini sarhisob qilar ekan quyidagilarni ta'kidlab o'tdilar: 2012 yilda O'zbekiston o'z iqtisodiyotini barqaror sur'atlar bilan rivojlantirishni davom ettirdi, aholi turmush darajasini izchil yuksaltirishni ta'minladi, dunyo bozoridagi o'z pozitsiyasini mustahkamladi.

Bu davrda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti 8,2 foizga o'sdi, sanoat ishlab chiqarish hajmi 7,7 foizga, qishloq xo'jaligi 7 foizga, chakana savdo aylanmasi hajmi 13,9 foizga oshdi.

Eksport hajmi sezilarli ravishda, ya'ni 11,6 foizga o'sdi, eksport qilinayotgan mahsulotlar tarkibi va sifati yaxshilanib bormoqda. Buning natijasida xomashyo bo'lmagan tayyor tovarlarning ulushi 70 foizdan ziyodni tashkil etmoqda. Tashqi savdo aylanmasidagi ijobiy saldo 1 milliard 120 million dollardan oshdi.

Inflyasiya darajasining o'sish sur'ati prognoz ko'rsatkichlari doirasida saqlab qolindi va 7 foizdan oshmadi.

2012 yilda soliq yukini kamaytirish siyosati davom ettirildi. Kichik korxona va mikrofirmalar uchun yagona soliq to'lovi stavkalari 6 foizdan 5 foizga tushirilgani, yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun belgilangan soliq stavkasi esa sezilarli tarzda, ya'ni o'rtacha ikki barobar kamaytirilgani buni yaqqol tasdiqlaydi.

Davlat jami xarajatlarining asosiy qismi, ya'ni qariyb 59,2 foizi ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy himoya qilish chora-tadbirlarini amalga oshirishga qaratildi, uning 34 foizdan ortig'i ta'lim, 14,5 foizdan ko'prog'i sog'liqni saqlash sohalarini moliyalashtirishga yo'naltirildi.

Yana bir yirik loyiha – umumiy qiymati 250 million dollardan ortiq bo'lgan Dehqonobod kaliyli o'g'itlar zavodining ikkinchi navbatini qurish ishlari davom ettirilmoqda. Bu boradagi ishlar yakuniga yetgach, korxonada yiliga 600 ming

tonnagacha kaliyli o'g'it ishlab chiqarish imkoni paydo bo'ladi va bu mahsulotning 350 ming tonnadan ko'prog'i eksport qilinadi.

O'tgan yili mamlakatimizda yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarni attestasiyadan o'tkazish bo'yicha bir pog'onali tizimni isloh qilish hamda joriy etish ishlari nihoyasiga yetkazildi.

2013 yilning 1 yanvaridan boshlab biz uchun yangi bo'lgan oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim, doktorlik ilmiy ishlarini tayyorlash va himoya qilish, ilmiy daraja hamda ilmiy unvonlar berish tizimi joriy etilmoqda.

Ilmiy kengashlar asosan nafaqat yuqori malakali kadrlar tayyorlash maskani, ayni vaqtda ilmiy tadqiqotlar olib boriladigan markazga aylanishi lozim bo'lgan yetakchi oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Oliy attestasiya komissiyasining tashkiliy tuzilishi va uning nizomi tubdan qayta ko'rib chiqildi.

2013 yilning 1 yanvaridan boshlab mamlakatimizda oliy o'quv yurtlari faoliyatini baholashning reyting tizimi joriy etilmoqda. Reyting tuzish vazifasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Davlat test markazi zimmasiga yuklanadi. Ushbu markaz reyting baholarini tuzishning hozircha vaqtinchalik tasdiqlangan metodikasi asosida Hukumatga mamlakatimizda oliy ta'limning qanday rivojlanayotgani to'g'risida har yili tahliliy ma'lumotlar taqdim etadi.

Oliy o'quv yurtlari faoliyati baholanadigan mezonlarni shakllantirishda oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish sifati va ilmiy salohiyat darajasi indeksiga asosiy e'tibor qaratiladi va ularning har biri natijasiga ko'ra, 35 foizdan eng yuqori ballar qo'yiladi. Shuningdek, talaba va bitiruvchilarning ish beruvchilar o'rtasida so'rov o'tkazish natijasida aniqlanadigan malaka indeksiga alohida ahamiyat beriladi va bu ko'rsatkich 20 foiz bilan baholanadi. Qolgan 10 foiz boshqa ko'rsatkichlar bo'yicha beriladi.

Reyting tizimini joriy etishning ma'nosi va ahamiyati faqat har bir oliy o'quv yurtining mamlakatimiz oliy o'quv yurtlari orasida qanday o'rinni egallab turgani haqida xolis ma'lumotga ega bo'lishdan iborat emas. Eng asosiysi, shu asnoda oliy

o'quv yurtlari o'rtasida sog'lom raqobat va musobaqa muhitini shakllantirish, shuningdek, ishimizdagi e'tibordan chetda qolib kelayotgan jihatlar va rezervlarni baholash, yuqori malakali kadrlar tayyorlash darajasi hamda sifatini yanada oshirish bo'yicha aniq takliflarni ishlab chiqish imkoniyati paydo bo'ladi.

Ta'lim sohasidagi ishlarimizni sarhisob qilar ekanmiz, Fransiyadagi dunyoning eng yaxshi beshta biznes maktabi qatoriga kiradigan "Inssad" xalqaro biznes maktabining 2012 yilgi "Innovasiyalarning global indeksi" ma'ruzasida bayon etilgan ma'lumotlarni keltirish o'rinli, deb o'ylayman.

Ma'ruza Jahon intellektual mulk tashkiloti bilan hamkorlikda tayyorlangan. Ushbu ma'ruzada dunyoning 141 mamlakatidagi innovasion rivojlanish kompleks tarzda tahlil qilingan. Tahlilning asosiy tarkibiy qismlaridan biri inson kapitalini rivojlantirish darajasi bo'lib, mazkur ko'rsatkich bo'yicha bizning mamlakatimiz 35-o'rinni egallagan. Ta'lim tizimini rivojlantirish darajasi bo'yicha esa O'zbekiston – shunga e'tibor beringlar – dunyoning 141 mamlakati orasida ikkinchi o'rinni band etgan. O'ylaymanki, bu o'rinda ortiqcha izohga hojat yo'q.

Joriy yilda mamlakatimiz iqtisodiyotini 8 foizga, sanoatni 8,4 foizga, qishloq xo'jaligini 6 foizga, asosiy kapitalga kiritilgan investsiyalar hajmini 11 foizga, xizmat ko'rsatish sohasini qariyb 16 foizga oshirish va yalpi ichki mahsulotda uning ulushi 53 foizgacha o'sishini ta'minlash vazifasi qo'yilmoqda. Yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan mahsulotlar ishlab chiqarishni ko'paytirishni ta'minlaydigan kimyo, neft-gaz va neft-kimyo sanoatini, mashinasozlik, metallni qayta ishlash, qurilish materiallari ishlab chiqarish, yengil, oziq-ovqat sanoatining yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlarini va boshqa sohalarni yuksak darajada rivojlantirish oldimizga qo'yilgan maqsadlarga erishishning asosiy manbai bo'lishi darkor.

Qishloq xo'jaligida paxta va g'allaning barqaror hajmini saqlagan holda, kartoshkachilik, sabzavotchilik, uzumchilik va chorvachilikni jadal rivojlantirish uchun barcha zarur shart-sharoitlar yaratildi. 2013 yilda mutanosib va barqaror davlat byudjetini shakllantirish maqsadida soliq ma'murchiligini yanada takomillashtirish va erkinlashtirish, mahalliy byudjetlarning daromad qismini mustahkamlash, butun soliq

tizimini soddalashtirish va uning oshkoraligini ta'minlash bo'yicha tegishli tadbirlar ko'zda tutilmoqda. Shularning hisobidan soliq yuki darajasining oshmasligi ta'minlanib, yalpi ichki mahsulotga nisbatan bu ko'rsatkich 21,3 foizni tashkil etadi.

2013 yilda ham Davlat byudjetining ijtimoiy yo'naltirilganligi saqlab qolinadi. Uning xarajatlar qismining 60 foizdan ortig'i ijtimoiy ehtiyojlarni moliyalashtirishga qaratilgan.

2013 yilda asosiy maqsadimiz – qurilishi boshlangan va mamlakatimizning sanoat ishlab chiqarish tarkibini tubdan o'zgartirishga xizmat qiladigan obyektlarni barpo etish sur'atlarining pasayishiga yo'l qo'ymaslik prinsipial ahamiyatga ega. Joriy yilda 115 ta muhim obyektni ishga tushirish ko'zda tutilmoqda. Hamkorlarimiz bilan kelishilgan yangi obyektlar qurilishini boshlashni tezlashtirish zarur. Shular qatorida Qo'ng'irot soda zavodining ikkinchi navbatini, "Rezinotexnika" ochiq aksiyadorlik jamiyati negizida avtomobil shinalari ishlab chiqarishni yo'lga qo'yish, bir qancha qo'shma korxonalarning quvvatini oshirish lozim.

2013 yilda qishloq joylarda namunaviy loyihalar asosida yakka tartibdagi uy-joylarni qurish ko'lamini yanada kengaytirish alohida o'rin tutishi zarur.

Shu borada barchamiz bir fikrni chuqur anglab olishimizni istardim. Qishloqlarda takomillashtirilgan zamonaviy loyihalar asosida yangi uy-joylar qurish va qishloq aholi punktlarini kompleks ravishda rivojlantirish – bu, avvalo, odamlarimizning turmush tarzi va mentalitetini tubdan o'zgartirish bo'yicha ezgu maqsadlarni ko'zlaydigan qishloq aholisi hayotini sifatli tashkil etish va yaxshilashga doir uzoq muddatli davlat dasturining asosiy ma'no-mazmunini tashkil etadi.

Zamonaviy muhandislik, transport va ijtimoiy infratuzilmaga ega bo'lgan yangi va ko'rkam uy-joy massivlarini barpo etish – mamlakatimiz qiyofasini har tomonlama obod qilishga qaratilgan, istiqbolga mo'ljallangan muhim vazifamizdir. Ana shu istiqbol rejalaridan kelib chiqqan holda, joriy yilda qishloq joylarda yakka tartibdagi yangi uy-joylar qurishni 8,5 mingtadan 10 mingtaga yetkazish ko'zda tutilmoqda. 2013 yilda bu

maqsadlar uchun 1 trillion 400 milliard so'm, ya'ni o'tgan yilga nisbatan 54 foiz ko'p mablag' yo'naltirish mo'ljallangan.

Bu borada shuni e'tiborga olish kerakki, mazkur maqsadlar uchun tuzilayotgan pudratchi qurilish-montaj tashkilotlari, barcha hududlarda shakllantirilayotgan ularning kuchli moddiy-ishlab chiqarish bazasi nafaqat uy-joylar, balki sanoat va xizmat ko'rsatish obyektlarini qurishga ham jalb etiladi.

Keyingi 10 yilda mamlakatimiz iqtisodiyotiga kiritilgan investisiyalar hajmi 3,2 barobar oshgan bo'lsa, shu davrda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiyalar hajmi 20 barobardan ziyod o'sgani e'tiborga sazovordir.

O'zbekistonda 2012 yilda mamlakatimizning investisiyaviy jozibadorligini yanada yaxshilashga yo'naltirilgan bir qator qo'shimcha muhim qonun hujjatlari va huquqiy normalar qabul qilindi. Biz mamlakatimizda xorijiy investorlar uchun muhim ahamiyat kasb etadigan investisiya loyihalarini amalga oshirish yo'lida zarur bo'lgan barcha ishlab chiqarish infratuzilmalarini davlat mablag'lari hisobidan ta'minlash prinsipini nafaqat qabul qildik, balki uni amalda joriy etmoqdamiz.

Biz qiymati 50 million dollardan oshadigan va xorijiy investorning ulushi kamida 50 foiz bo'lgan aniq loyihalarining o'z muddatida amalga oshirilishini ta'minlaydigan infratuzilmani loyiha hujjatlari asosida o'z vaqtida qurish majburiyatini zimmamizga olamiz. Surg'il koni negizida Ustyurt gaz-kimyo majmuasini qurish bo'yicha amalga oshirilayotgan loyiha buning yaqqol dalilidir. Bu yerda umumiy qiymati 212 million dollarni tashkil etadigan tashqi muhandislik infratuzilmasini barpo etishni davlat o'z zimmasiga olgan. "Navoiy" erkin industrial-iqtisodiy zonasi va "Angren" maxsus industrial zonasida yaratilgan sharoitlar ham bunga misol bo'lishi mumkin.

Mamlakatimizda yaratilgan ishbilarmonlik muhiti qulay investisiyaviy jozibadorlikning muhim tarkibiy qismi va omilidir. O'zbekistonda Jahon banki tomonidan ishlab chiqilgan metodologiyaga mos va mamlakatimizda biznesni yuritish bilan bog'liq barcha jarayonlarni yanada liberallashtirish, soddalashtirish, arzonlashtirish va ularning ochiqqligini ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks dastur

qabul qilindi. 2012 yil davomida mazkur dastur doirasida oltita muhim qonun, jumladan, “Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to’g’risida”gi, yangi tahrirdagi “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to’g’risida”gi qonunlar, shuningdek, ruxsat berish tartib-taomillarini soddalashtirish, soliq va statistik hisobotlarni qisqartirishga qaratilgan qonun hujjatlari va normativ aktlar majmuasi qabul qilindi.

Yangi ish o’rinlari tashkil etish va mamlakatimiz aholisi bandligini ta’minlash 2013 yil va undan keyingi yillarga mo’ljallangan maqsadli vazifalarni hal qilishning eng muhim ustuvor yo’nalishi bo’lib qoladi. Oliy Majlis tomonidan ma’qullangan dasturda 2013 yilda 970 mingdan ortiq yangi ish o’rni tashkil etish ko’zda tutilgan. Muhim ijtimoiy ahamiyatga ega bo’lgan mazkur masalani hal etishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni, xizmat ko’rsatish va servis sohasini jadal rivojlantirishga alohida e’tibor qaratiladi. Ushbu sohalarda qariyb 500 ming ish o’rni yaratish rejalashtirilmoqda.

Band bo’lmagan aholini ish bilan ta’minlashda kasanachilikning turli shakllarini, birinchi navbatda, kasanachilar va korxonalar o’rtasidagi kooperasiyani mehnat shartnomalari asosida kengaytirish, oilaviy biznesni rivojlantirish katta rezerv hisoblanadi. Mazkur sohalar hisobidan 280 mingdan ortiq kishini ishga jalb qilish ko’zda tutilgan. Ish o’rinlarini tashkil qilishda, birinchi navbatda, tarmoq dasturlarini amalga oshirish, korxonalarni modernizasiya qilish va texnologik yangilash, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlashni chuqurlashtirish, transport va kommunikasiya qurilishini, ijtimoiy va bozor infratuzilmasini jadal rivojlantirish, aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini kengaytirish masalalari muhim o’rin tutadi va bu sohalarda 250 ming kishini ish bilan ta’minlash belgilangan.

Yuqorida bayon qilingan fikrlarni umumlashtirib, o’tgan davrda amalga oshirgan keng ko’lamli ishlarimiz ham, joriy yildagi va undan keyingi yillardagi barcha sa’y-harakatlarimiz ham yagona ezgu maqsadga –xalqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirishga qaratilganini yana bir bor ta’kidlamoqchiman. Bu sohada erishilgan real raqam va ko’rsatkichlar mamlakatimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar

va o'zgarishlarning samaradorligini yaqqol namoyon etayotganini har birimiz o'zimizga aniq tasavvur qilishimiz lozim. Hyech kimga sir emaski, hayot darajasi, birinchi navbatda, aholining daromadlari miqdori bilan belgilanadi. O'tgan 2012 yilda bu ko'rsatkich yurtimizda 17,5 foizga o'sdi, eng kam ish haqi 26,5 foizga oshdi.

Umuman olganda, 2000 yil bilan taqqoslaganda, real daromad aholi jon boshiga 8,6 barobar ko'paydi. Hisob-kitoblarga ko'ra, o'rtacha ish haqi iste'mol savatchasi bahosidan 4 barobardan ziyod oshdi. 2013 yilda byudjet tashkilotlari xodimlarining ish haqi, pensiyalar, nafaqa va stipendiyalar miqdorini o'rtacha 23 foizdan kam bo'lmagan darajada oshirish, 2013 yilda va keyingi ikki yilda aholi real daromadlarini kamida bir yarim barobar ko'paytirish vazifasi qo'yilmoqda. Mamlakatimizda aholi daromadlarining oshib borishi bilan uning tarkibi o'zgarib, tadbirkorlik faoliyatidan olinayotgan daromad barqaror o'sib borayotgani alohida e'tiborga molikdir. O'tgan 2012 yilda ushbu ko'rsatkich 51 foizni tashkil qildi, boshqacha aytganda, odamlarimiz daromadining yarmidan ko'pi birinchi navbatda tadbirkorlik, kichik va xususiy biznes hisobidan shakllanmoqda. Ana shu davrda aholining banklardagi omonatlari o'sishi 34,6 foizni tashkil qildi, so'nggi o'n yilda esa 40 barobardan ziyod oshdi. 2012 yilda mamlakatimizdagi barcha investisiyalarning 20 foizdan ortig'ini aholi investisiyalari tashkil etgani, ayniqsa, e'tiborlidir.

O'zbekistonda aholining eng ko'p ta'minlangan 10 foizi va eng kam ta'minlangan 10 foiz qatlami daromadlari o'rtasidagi tafovut 2012 yilda atigi 8,0 barobarni tashkil etganini alohida ta'kidlashni istardim. Bu jahondagi eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, mamlakatimizda jamiyatning keskin tabaqalanishiga yo'l qo'ymaslik borasida olib borilayotgan ijtimoiy siyosatimizning samarasi, desak, hyech qanday xato bo'lmaydi.

Odamlarning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini aholining muayyan guruhiga mansubligini anglashi ularning turmush darajasi va sifatining umumiy hamda yakuniy indikatori hisoblanadi. Bu borada, albatta, aholi jon boshiga to'g'ri keladigan daromad bilan bir qatorda yashash sharoiti va standartlari, aholining obod va zamonaviy uy-joylar bilan ta'minlangani, odamlar istiqomat qiladigan muhitni rivojlantirish hamda

obodonlashtirish, zarur infratuzilmaning mavjudligi va uning samarasi, aholini sifatli iste'mol tovarlari, shu jumladan, mamlakatda ishlab chiqarilgan tovarlar bilan ta'minlash, zamonaviy talablar asosida ta'lim olish hamda sog'liqni saqlash tizimidan bahramand bo'lish kabi hayot darajasini belgilaydigan muhim ko'rsatkichlar inobatga olinadi.

O'zbekistonda yuqorida qayd etilgan aksariyat indeks va ko'rsatkichlar bo'yicha katta o'zgarish va yutuqlarga erishildi. Bu haqda so'z yuritganda, shuni aytish joizki, ayni paytda oilalarning 97 foizi o'z uyiga ega, aholining 90 foizi uzoq muddat foydalaniladigan barcha asosiy tovarlar bilan ta'minlangan, har uch oiladan biri shaxsiy yengil avtomobilga ega, aholi iste'mol mahsulotlari bilan yetarli darajada ta'minlanmoqda.

O'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, ayni paytda mamlakatimiz aholisining 50 foizga yaqini o'zini o'rta toifaga mansub deb biladi. Holbuki, 2000 yilda atigi 24 foiz aholi o'zini shu toifaga mansub deb bilar edi. Shuni unutmaslik kerakki, o'rta sinf ulushining yuqoriligi fuqarolik jamiyatini shakllantirishning zamini va asosi, davlatning barqarorligi va mustahkamligining, odamlarning o'z kelajagiga bo'lgan ishonchining muhim omili sifatida qabul qilinadi. O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar muvaffaqiyati, aholi turmush darajasi va hayot sifatini oshirish bo'yicha erishilgan yutuqlar yetakchi xalqaro tashkilotlar hamda ekspertlar hamjamiyati tomonidan keng e'tirof etilib, xolisona baholanmoqda.

2012 yilda Buyuk Britaniyaning xalqaro miqyosda tan olingan Legatum instituti o'zining Farovonlik va rivojlanish indeksida O'zbekistonni dunyo mamlakatlari orasida haqli ravishda 64-o'ringa kiritgani e'tiborga loyiqdir.

Ijtimoiy farovonlik, jumladan, umr ko'rish davomiyligi, oilalarning tinchligi va osoyishtaligi, ishsizlik darajasining pastligi, ijtimoiy infratuzilmadan foydalanish darajasi bo'yicha ham O'zbekiston jahon hamjamiyatida o'zgalar havas qiladigan o'rinni mustahkam egallab turibdi. Hyech shubhasiz, xalqimizning tinimsiz mehnati, mardligi va matonati evaziga qo'lga kiritgan bunday yutuqlardan va marralardan har qaysimiz g'ururlanib, boshimizni baland ko'tarib yashashga haqlimiz.

Biz 2013 yilni yurtimizda “Obod turmush yili” deb e’lon qildik. Aholimizning tinch-omon hayotini ta’minlash, uning farovonligini oshirish, iqtisodiyotimizni izchil rivojlantirish, O’zbekistonimizning xalqaro maydondagi obro’-e’tibori va pozitsiyasini yuksaltirish, mintaqamizda tinchlik va barqarorlikni mustahkamlash bo’yicha o’z oldimizga qo’yayotgan maqsadlar, miqyosi va ko’lamiga ko’ra, xalqimizning ezgu orzu-umidlari bilan hamohangdir.

Shuni alohida ta’kidlab aytmoqchiman, 2013 yilda va undan keyingi yillarda dasturiy maqsadlarimizni amalga oshirish uchun o’z salohiyatimiz, barcha imkoniyat va kuch-g’ayratimizni safarbar etish bugungi kundagi eng katta va mas’uliyatli vazifamizdir.

VI. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida hayot faoliyati xavfsizligi

Mehnat va faoliyat shakllari turlicha bo'lib, ular hayotda uchramaydigan aqliy ma'naviy, madaniy ilmiy va boshqa jarayonlarni o'z ichiga oladi. Ishchilarni xavfli va zararli ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan dastlabki materiallar yarim mahsulotlar chiqindi va ishlab chiqarishi bilan bevosita aloqasini yo'qotish xavfli va zararli ishlab chiqarish omillari mavjud joylarni kompleks avtomatlashtirish hamda mexanizasiyalash, texnologik jarayonlarda nazorat va boshqarish tizimini o'rnatish darkor. Bu ishlovchilarning himoyasini va ishlabchiqarish jarayonlarining avariya holatiga uchramasligini ta'minlaydi. Texnologik jarayonlarga qo'yiladigan xavfsizlik talablari texnologik hujjatlarda ko'rsatilgan bo'lishi shart. Barcha mashina va mexanizmlarga xavfsizlik texnikasi va ishlab chiqarish sanitariyasi bo'yicha yagona talablar qo'yiladi.

Ana shu talablarga muvofiq mashina va mexanizmlarni boshqarishning asosiy richaklari o'ng qo'l ostida joylashgan bo'lishi har qaysi mashinada tavush signali, orqani ko'rishi oynasi, burilish va to'xtash signallari bo'lishi kerak. Ish jarayonida mashina va mexanizmdagi mahkamlangan joylar bo'shashadi, zarur tirqishlar kattalashadi, moy, suv yoki yonilg'i siza boshlaydi va hokazo. Shu boisdan pala - partish ko'rsatilgan texnik xizmat avariya va baxtsiz hodisalarga sabab bo'lishi mumkin. Masalan, traktor yurish qismining mahkamlangan joylarini o'z vaqtida tekshirib va taranglab turilmasa, o' og'darilib ketishi mumkin. Agar mashina ishlayotgan vaqtda inson hayoti yoki salomatligiga xavf soladigan nuqson payqalsa, ishni darhol to'xtatish kerak. Har bir traktorchi, kambaynchi, haydovchi, mashinani ishlatishdan oldin uning texnik holatini tekshirib ko'rishi kerak. Mehnat xavfsizligini ta'minlashning texnik vositalari. Har qanday xo'jalikka, korxonalarga yetkazib beriladigan har qanday qishloq xo'jaligi mashinasi agregati mexanizmi va uskunalari baxtsiz hodisalarni oldini oladigan zamonaviy himoya vositalari bilan jihozlanadi. Mehnat xavfsizligi to'siq, tormoz, blokirovka, saqlash qurilmalari, signalizasiya, shaxsiy himoyalash vositalarini ishlatish, ularnig yaxshi ishlashini nazorat qilish bilan ta'minlanadi. To'siq qurilmalar xavfli zonalarini himoyalash uchun oddiy ishonchli va

arzon to'siq qurilmalar keng ko'lamda ishlatilmoqda. To'siq qurilmalar insonni xavfdan himoyalash uchun xizmat qiladi, barcha himoya qurilmalar to'rt guruxga bo'linadi:

- mexanik zo'riqishlardan saqlovchilar (turli xil muftalar, kesib ketadigan boltalar, shtiftlar va boshqalar) – mashina qismlarining belgilangan gabaritdan chiqishini saqlovchilar (yuk ko'tarish mexanizmlarining chetki o'zib- ulagichlari ular mashinani ish organik yoki mexanizmining siljishini cheklab turadi)

- bosim yoki haroratning ko'tarilib ketishidan saqlovchilar (konstruksiyasi turlicha bo'lgan klapanlar, ular idishdagi bosim ortib ketganida, traktorning gidro sistemasida moy avtomobel va traktorning tormozlash sestimasida havo bug'ining harorati qazon qurilmasida suv ko'payib ketgandan ochiladi va hokazo).

- Elektr tok kuchining ruxsat etiladigan chegaradan ortib ketishidan - saqlovchilar (elektr tarmoqlaridagi eruvchi saqlanishlar, avtomatik o'zib ulagichlar, buzilgan elektr uskuna asbob va boshqalarni tarmoqdan uzib qo'yadi.)

VII. Yer shari iqlimining hozirgi o'zgarishlari va uning tabiiy resurslarga ta'siri

O'zbekiston Yevroosiyo materigining markaziy qismida, dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgan. O' janub va sharq tomondan baland tog'lar bilan o'ralgan bo'lib 80% cho'l va chala cho'l zonalariga to'g'ri keladi. Respo'blikaning chekka janubiy qismlari so'btropik iqlim, shimoliy mo'tadil iqlim mintaqalarida joylashgan. Yoz vaqtida kuchli quyosh radiatsyasi ta'sirida qizib ketgan cho'llar ustida tropik to'zon havo massasi shakllanadi. Havoning o'rtacha oylik harorati 28-30° S ni tashkil qilsa, eng yuqori ko'rsatgichlari 50⁰⁵ gacha yetadi.

Qishda iqlim 2- havo oqimining o'zaro ta'siri bilan belgilanadi. Shimol va g'arbdan hududga sovuq havo qarshiliksiz kirib keladi. Shu vaqtning o'zida Markaziy Osiyoga unchalik baland bo'lmagan tog'lardan o'tib, Arabiston dengizi va Fors qultug'i ustidan shakllangan iliq havo massalari kirib keladi. Shunday qilib, O'zbekistonda kontinental iqlim shakllanadi. Iqlimnmng kontinentalligi ob-havoning keskin o'zgarishlarida, haroratning sutkalik va yillik tebranishlarida ko'rinadi.

O'zbekiston hududi 3 iqlim zonasiga bo'linadi: cho'l zonasi, tog' oldi (adir) va tog' zonlari. Orol va Ustyurt okruglarini hisoblamaganda, ispo'blikning tekislik qismida beqaror qor qoplami va yumshoq qishlar bo'lib turadi. Shuning uchun Respublikaning ko'pchilik rayonlarida o'simliklarning rivojlanishi butunlay to'xtamaydi.

O'zbekistonning iqlimi ham sayyoramiz iqlimiga o'xshab davriy o'zgarib turadi. Yer shari iqlimi o'zgarishining asosiy belgilovchisi hororatdir. So'ngi yillarda haroratning o'sish tendensiyasi kuzatilmoqda bu ayniqsa 1973-1990 yillar yozda va 1981-1990 yillar qishda yaqqol namoyon bo'ldi. O'bekistonda iqlim o'zgarishiga insonning ta'siri dastavval meliorasiya va cho'llashish natijasida amalga oshdi. So'g'oriladigan dehqonchilik rayonlarida suv omborlari tashkil etilishi natijasida yoz oylari haraorat nisbatan pasayadi, havo namligi 10-150% ga yetadi. Lekin bu juda kichik hududda bo'lganlagi sababli O'zbekistonning barcha cho'l iqlimiga ta'siri deyarli sezilmaydi.

Ekologik muvozanatning izdan chiqishi, tuproq eroziyasi, ildiz yashaydigan yer qatlamida tuzlarning to'planishi, harakatdagi qumlarning vujudga kelishi yaylovlarini buzilishi va shu kabi boshqa oqibatlar cho'llanishga olib keladi.

Respublikamizning katta qismida sovuqsiz davr taxminan 200 kunni tashkil qiladi: Ustyurtda 160 kundan Sherobodda 280 kungacha.

Havoning mo'tloq minimal harorati - 30°S ham pastroq. Ayrim hollarda -40°S gacha yetitishi mumkin.

Vegetasiya uchun samarali haroratlar yig'indisi nafaqat mo'tadil kengliklar ekinlarini balki bir qator tropik ekinlar (g'o'za, anjir, anor, shakar qamish, xurmo va boshqalar) yetishtirish uchun yetarli -dir.

Atmosferada SO_2 miqdorining ortishi O'zbekistonda haroratning ko'tarishi, atmosfera serkulyasyasining o'zgarishi nonormal atssfera hodisalari- toshqin, sel, do'l, garmsellarni ko'paytiradi.

Qurg'oqchilik bizning sharoitda o'ta xavfli bo'li, u daryolar oqimini kamaytiradi, sizot suvlar darajasini pasaytiradi, natijada suv resurslarining yetishmasligini keltirib chiqaradi. Buning natijasida aholining suv bilan ta'minlanishi yomonlashadi, qishloq xo'jalik ekinlari mahsuldorligi pasayadi, gidro elektroenergiya ishlab chiqarishi kamayadi. Global haroratning ortishi birinchi navbatda mamlakatning hozirda suv yetishmasligidan qiynalayotga hududlarini juda og'ir ahvolga solib qo'yadi. Qaroqalpog'istonning Mo'ynoq rayoni hozirdayoq ekologik fojia zonasiga kiradi. Mutaxasislarning fikriga ko'ra yillar ichida Zarafshon daryosining qo'yi oqimida joylashgan tumanlar ham uning taqdirini ko'rishlari mumkin. Va holanki Zarafshon vodisiy butun Markaziy Osiyoning g'alla va paxta yetishtiriladigan asosiy joylaridan birgina bo'lib qolmasdan, balki o' jahon sivilizasiyasi madaniy o'choqlaridan biri -dir.

Ekspertlarning ta'kidlashicha 2030 yilga borib O'zbekistonda haroratning ortishi 3,5 va hattoki 4°S ga yetishi mo'mkin. Muxasislar fikricha global haroratning ortishi ayniqsa O'zbekistoning shimoliy- g'arbiy viloyatlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Janubiy va yonbosh toqli rayonlarda haroratning ortishi uncha yuqori bo'lmaydi. 60

yillardan boshlab O'zbekistonning ekotizmlarida mislsiz o'zgarishlar bo'ldi. Yuqori suratlarda magitral kanallar o'tkazildi, suv obamborlari qurildi, sug'oriladigan yerlar kengaydi, yaylovlarga suv chiqarildi.

Antropogen ta'sir natijasida mamlakatning faqatgina qurg'oqchilik zonalarininggina emas, balki tog'li rayonlarning ham cho'llashuvi ro'y bermoqda. 2020-2030 yillarga borib, O'zbekiston hududidagi quruq subtropik va mo'tadil mintaqqa o'rtasida chegara 2°S kenglik shimolga siljiydi, ekstremal harorat ko'tariladi, yog'inlar miqdori normadan 15-20 % o'zgaradi.

Bu esa o'z navbvtida sovuqsiz davrlarni ko'paytiradi, o'simliklarning vegetasiya davrini uzaytiradi. Ijobiy oqibatlar bilan birgalikda qishloq xo'jalik ekinlari hosilini kamayishiga olib keluvchi xavfli ob-havo hodisalarning ehtimoli kutilmoqda. Xususan yozgi haroratning ortishi kuzgi ozuqa zaxiralarining shakllanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Haroratning ko'tarishi ayrim tropik zararkunandalar va kasallik tarqatuvchi organizmlarni bostirib kirishiga olib kelishi mumkin. Yovvoyi hayvon va o'simlik turlari o'zlarida evolyusion mustahkamlangan qarshilik ko'rsatish imkoniyati yo'qligi sababli ularga bas kelolmay qolishlari ehtimoli bor.

Xulosalar va takliflar

Adabiyotlar tahlili hamda to'plangan ma'lumotlar tahliliga asoslanib bizlar qo'yidagi xulosalarga keldik.

1. Oziq moddalari bilan kam ta'minlangan o'tloq –bo'z tuproqlar sharoitida o'g'itlar nisbati azotga nisbatan 1:0,7:0,5 bo'lgani ma'quldir. Bunday sharoitda “Omad” navli g'o'zalarni oziqlantirishda o'g'itlar yillik normasini $N_{220}P_{160}K_{100}$ va 20 tonna gung miqdorida belgilash eng maqbul oziqlantirish me'yorida.

2. Belgilangan o'g'itlar yillik me'yorlarini davrlar bo'yicha to'g'ri taqsimlab berish g'o'za nihollarining yaxshi o'sib rivojlanishini ta'minlaydi. Shudgor ostiga gektariga $P_{80}K_{50}$ va 20 tonna gung; ekish bilan birga N_{50} kg miqdorida o'g'it berish g'o'zalarini o'sishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, shonalash davrida gektariga N_{100} ; K_{50} ; gullashni boshlanishida esa gektariga $N_{70}P_{80}$ kg miqdorida o'g'itlar berish yuqori hosil olishni ta'minlaydi.

3. Yuqori agrotexnika va o'g'itlar yillik me'yorining to'g'ri belgilanishi hamda taqsimlanishi oziq moddalari bilan kam ta'minlangan o'tloq- bo'z tuproqlar sharoitida ham g'o'zadan yuqori hosil yetishtirishni ta'minlaydi va har bir gektar yerdan 41,5 sentnerdan hosil olinishga erishildi.

4. Iqtisodiy tahlillardan ma'lum bo'ldiki, shartli sof foyda miqdori ham mineral va organik o'g'itlar birgalikda berilganda yuqori bo'ldi. Bunda har bir gektardan o'rta hisobda 1478,3 ming so'mgacha shartli sof foyda olishga erishiladi.

5. Oziqa moddalari bilan kam ta'minlangan o'tloq- bo'z tuproqlar sharoitida “Omad” navli g'o'zalarni gektariga $N_{220}R_{160}K_{100}+20$ tonna gung miqdorda mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirish yuqori va sifatli paxta hosili olinishi ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimov I.A. Bosh maqsadimiz – keng ko'lamli islohotlar va modernizatsiya yo'lini qat'iyat bilan davom ettirish. “Halq so'zi” gazetasi. 19- yanvar 2013 yil
2. Karimov I.A. O'zbekiston 21 asr bo'sag'asida, xavsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari. Toshkent, “O'zbekiston”, 1997y.
3. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – to'kin hayot manbai. Toshkent “O'zbekiston”, 1998y.
4. Karimov I.A. Dehqonchilik taraqqiyoti – farovonlik manbai. Toshkent, 1994y.
5. Karimov I.A. 2012 yil mamlakatimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko'taradigan yil bo'ladi. “Halq so'zi” gazetasi, 2012y
6. Muhammadjonov, M.V.Zokirov A. G'o'za agrotexnikasi. Toshkent 1995y.
7. Protasov P.V., Qodirxo'jayev F.V. Paxtachilikda o'g'itlardan foydalanish. Toshkent 1981y.
8. Ernazarov I. Paxtachilikda oraliq ekinlar. Toshkent 1988y
9. Raxmonqulov S. Rayonlashtirilgan va istiqbolli g'o'za navlari agrotexnikasi. O'zbekiston Q/h jurnali, 1997y. №2, 25-26 betlar
10. Satipov G. Ko'chat qalinligi, o'g'it miqdori va so'g'orish tartibi. O'zbekiston Q/h jurnali, 1998 y. № 1, 29-31 betlar.
11. Ibroximov I., Qodirxo'jayev M., Mirzayev L.t Azotli o'g'itlar O'zbekiston Q/h , Toshkent № 1, 2001y
12. Izbasarov E., O'rolov S., Ro'ziyev A. S-6524 navini sug'orish, oziqlantirish tartibi. O'zbekiston Q/h jurnali, 1992 № 4, 5-11 betlar.
13. Qodirov E., Niyozaliyeva B., Yakvalxojiyeva T. Ko'chat qalinligi, oziqa va sug'orish tartiblarining g'o'za navlari hosildorligiga ta'siri. O'zbekiston Q/h. Toshkent № 4, 2002 y.
14. Muxamedxanov S., Shamsutdinov Sh.I. Vliyaniye razlichnykh norm mineralnykh udobreniy na krupnost korobochki i urajaynost xlopchatnika.
15. Rahimboyev F. Qishloq xo'jaligi meliorasiyasi. Toshkent 1996 y.
16. Norqulov U., Sheraliyev X. Qishloq xo'jaligi melorasiyasi. Toshkent 2003y.

17. Oripov R., Ostonov Paxtachilik. Samarqand, 1997 y.
18. Oripov R., Lazavatskaya S. G'o'za agrotexnikasining muhim masalalari, Toshkent 1989 y.
19. Paxta yetishtirish texnologiyasi bo'yicha tavsiyalar. SamQXI, 1999 y.
20. Boboxo'jayev I., Xudoyqulov O. Turlicha yer sharoitida tuproq eroziyasi. SamQHI ilmiy to'plami. 1994 y.
21. Sayfiddinov T. Irrigasiya eroziyasini oldini olish agrotadbirlarining ahamiyati. SamDU ilmiy to'plami. 1987 y.
22. Protasov P.V., Qodirxo'jayev M. Paxtachilikda o'g'itlardan foydalanish. Toshkent. 1988 y.
23. Paxtachilikda agroxiimiya. O'quv qo'llanma. Toshkent 1988 y.
24. Sarimsoqov M. Yuqori hosil omillari. O'zbekiston Qishloq xo'jaligi, Toshkent № 11, 2003y.
25. Sanaqulov A. Xoshimov F., Toshtemirov A. Oqdaryo-6 navini azotli oziqlantirish rejimi, O'zbekiston Qishloq xo'jalik jurnali, 2002 y.
26. Sh. Mirzayev Sug'orish texnologiyalari va o'g'itlar samaradorligi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2006 y. № 6.
27. I. Ernazarov, N.Ernazarov Oziq moddalar muttanosibligi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2006 y. № 8.
28. O.Akromov S-6524 g'o'za navi hosildorligiga o'g'it me'yolari va sug'orish usullari ta'siri. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2005 yil № 8.
29. A.Haydarov, F.Hasanov, O.Ashurov Azotli o'g'itlar. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2005 yil № 9.
30. O.Nazarov G'o'zani o'g'itlash muddatini bilasizmi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2004 yil, № 5.
31. A.Mamadaliyev O'g'it va hosil. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2004 yil № 5.
32. G'.Satinov, E.Samandarov Yangi istiqbolli g'o'za navlari parvarishi. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2004 yil № 6.

33. I.Ernazarov O'g'itlarni qo'llash me'yorlari. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2003 yil, № 7.
34. G.Satipov., I.Ismoilov Новые сорта хлопчатника в условиях Хорезмского Оазиса. O'zbekiston qishloq xo'jaligi jurnali, 2003 yil № 9.
35. Paxtachilik spravochnigi. Toshkent. Mehnat- 1989
36. Shayxov E.T., Normurodov N. va boshqalar "Paxtachilik". Toshkent. Mehnat- 1990.
37. O'zbekistonda sug'oriladigan ekinlar uchun organik va mineral o'g'itlarni tabaqalashtirgan holda qo'llash bo'yicha tavsiyalar. Toshkent- 1987

Ilovalar